



PREZIDENT HUZURIDA MAKTABGACHA TA'LIM QAMROVINI OSHIRISH CHORALARI MUHOKAMA QILINDI

Q2-bet



«MILLIY TIKLANISH»
DEMOKRATIK
PARTIYASINING IJTIMOIY-
SIYOSIY GAZETASI

1995-yil 10-iyundan chiqib boshlagan www.mt.uz / milliytiklanish2022@umail.uz

tiklanish

MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT



№ 14 (1202)
2023-yil 17-may
chorabombi
Adadi - 8657

O'ZLIKNI ANGLASH,
TARIXNI BILISHDAN
BOSHLANADI

5s

ENDI VAQTIDA TO'LANMAGAN
150 MING SO'M O'RNIGA
1,5 MLN SO'M JARIMA TO'LANMAYDI

3s

PARTIYA

PREZIDENT SAYLOVIDA

FAOL ISHTIROK ETADI



2023

- yil 13-may kuni "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy kengashining navbatdan tashqari Plenumi bo'lib o'tdi.

Tadbirda partiya faollari bugungi kunda xalqimizni yagona kuch atrofida birlashtirish muhim ekanini ta'kidladilar.



«MILLIY TIKLANISH»GA
GUVOHNOMA
TOPSHIRILDI

15-may kuni Markaziy saylov komissiyasining muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga bag'ishlangan navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda siyosiy partiyalarga saylovda ishtirok etishga ijozat berilganligi to'g'risidagi guvohnoma topshirildi. Ma'lumki, Saylov kodeksiga muvofiq, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirok etishga ijozat berishni so'rab taqdim etilgan hujjatlari ham ko'rib chiqildi va partiyaga 2023-yil 9-iyul kuni bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishtirok etishga ijozat berildi. Partiyaning vakolatli vakili Bahodirjon Mamatxonov Markaziy saylov komissiyasidan ana shu hujjatni qabul qilib oldi. Shuningdek, vakolatli vakilga belgilangan namunadagi imzo varaqalari blankalari ham topshirildi. Saylov qonunchiligiga ko'ra, saylovchilar bitta yoki bir nechta siyosiy partiyani yoxud O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarni qo'llab-quvvatlab imzo qo'yishga haqli. Bunda saylovchi o'z ismi sharifini, tug'ilgan yilini (yoshi o'n sakkizda bo'lsa, qo'shimcha ravishda tug'ilgan kuni va oyini), yashash joyini, pasporti yoki identifikatsiya ID-kartasining seriyasi va tartib raqamini, shuningdek, imzo qo'yilgan sanani ko'rsatishi kerak bo'ladi. Imzo varaqasi imzoni to'plagan shaxs tomonidan o'z ismi, sharifi hamda otasining ismi ko'rsatilgan holda imzolanadi, shuningdek, tegishli siyosiy partiyaning tuman yoki shahar tuzilmasi rahbari tomonidan muhr bosib tasdiqlanadi.

REFERENDUMDAN SO'NG 8

Endi yangi konstitutsiya jabrdiydalarga malham



MILLIY TARBIYA 9

Otaning o'zni yo'qolmasin. Aks holda...

"Ota xom uzum yesa, farzandaning tishi qamashadi", degan ibora bor xalqimizda. Bu nima degani? Bu - farzandalarimiz, ayniqsa, o'g'il bolalar otalariga qarab bo'y cho'zadilar, deganidir

MILLAT RUHI 10

BEHBUDIY DARS BU,
qadriyat
DARS



ISSN 2010-3314

PREZIDENT HUZURIDA MAKTABGACHA TA'LIM QAMROVINI OSHIRISH CHORALARI MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 30 mingga yaqin maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 2 milliondan ziyod o'g'il-qiz tarbiyalanmoqda. So'nggi besh yilda 422 ta davlat bog'chasi qurilishi hamda 21 mingdan ortiq nodavlat muassasalar ochilishi hisobiga 1 million 200 ming o'rin yaratilgan. Tizimga bolalarni qamrab olish ko'rsatkichi 72 foizga yetgan.

Shu bilan birga, joylarda o'tkazilgan ochiq muloqotlarda aholi bog'chalarni yanada ko'paytirish istagini bildirgan. Shunga asosan, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan maktabgacha ta'lim jarayonini yangi tartibda tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Taqdimotda maktabgacha ta'lim tizimini yanada

takomillashtirish, bog'chalarda sifat va qamrovni oshirish, bu borada ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilish choralari haqida axborot berildi. Xususan, aholisi zich yoki qamrov ko'rsatkichi past bo'lgan hududlarda yangi davlat bog'chalari quriladi hamda xususiy sektor kengaytiriladi. Kam quvvatda ishlayotgan maktablarda tayyorlov guruhlari tashkil etiladi.

Davlatimiz rahbari bu soha ayollarga yengillik yaratish va farzandlar tarbiyasida muhim ekaniga alohida e'tibor qaratdi.

Mutasaddilarga ta'lim sifatini yaxshilash, dasturlarni takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini yangi bosqichga ko'tarish yuzasidan ko'rsatmalar berildi. Maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish bo'yicha besh yillik dastur ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.



O'za

«MILLIY TIKLANISH» PREZIDENT SAYLOVIDA FAOL ISHTIROK ETADI

Boshlanishi 1-betda

Unda partiyaning Markaziy va hududiy kengashi hamda fraksiyasi a'zolari, mahalliy Kengash deputatlari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdilar.

Plenumda 2023-yil 9-iyul kuni muddatidan avval bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida «Milliy tiklanish» demokratik partiya ishtiroki, bo'lajak nomzod bo'yicha takliflar kiritish, partiyaning navbatdan tashqari VIII S'ezdini chaqirish hamda S'ezdga delegatlar saylash masalalari muhokama qilindi.

Plenumda qayd etilganidek, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarning faol ishtirokchisi va tashabbuskorlaridan biridir. Partiya asosiy elektorati bo'lgan ta'lim, madaniyat sohasi vakillari, ziyolilar qatlami manfaatlarini parlament hamda mahalliy kengashlarda samarali ifodalab kelmoqda.

Shu ma'noda, joriy yilning 9-iyuliga belgilangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida partiyaning faol ishtirok etishi zarurati ta'kidlanib, bu haqda tegishli qaror qabul qilindi.

Majlisda jamiyatdagi har qanday o'zgarishlar inson omili bilan bog'liq ekanini qayd etilib, insonning o'zgarishi uning tarbiyasi va ta'limiga bog'liq, shu bois partiyaning asosiy shiori «Inson o'zgarisa jamiyat o'zgaradi» deb belgilangan. Partiya keyingi yillarda o'zining ta'lim-tarbiya, milliy o'zlik va madaniyatni saqlash, turizm va iqtisodiyotni rivojlantirish kabi ustuvor maqsad va vazifalarini amalga oshirish borasida keyingi yillarda muayyan natijalarga erishdi. Shu o'rinda ana shu qisqa davr ichida yurtimizning jadal taraqqiy etayotganligini xalqimiz va dunyo ahli keng e'tirof etayotganini ta'kidlash joiz.



Plenumda so'zga chiqqanlar maktabgacha ta'lim tizimi, maktab va oliy ta'limning tubdan isloh qilinishi natijasida mamlakatda inson kamoloti uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganini, 2017-yilda maktabgacha yoshdagi bolalarning 18-20 foizi bog'chalarga qamrab olingan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 75 foizga yetganini ta'kidladilar.

So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarimizni oliy ma'lumotli bo'lishlari borasida juda katta ishlar olib borildi. Respublika bo'yicha oliy ta'lim muassasalari soni jami 210 taga yetdi. Natijada oliy ta'lim bilan qamrov 2016-yildagi 8 foizdan qariyb 40 foizga yetdi. Minglab o'g'il-qizlarimizga o'z yurtimizda sifatli oliy ta'lim olish imkoniyati yaratildi, dedi Samarqand davlat universiteti rektori, senator Rustam Xolmuradov.

Ayniqsa, o'tgan yillar davomida oila institutini jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida mustahkamlash va qo'llab-quvvatlash bo'yicha tom ma'noda ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi, davlat tili, milliy qadriyatlar, ma'naviy-madaniy va tarixiy merosimizga munosabat, hurmat va e'tibor oshdi.

Milliy ishlab chiqarish qo'llab-quvvatlangani natijasida iqtisodiyotimiz sezilarli darajada rivojlandi, yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 milliard dollardan oshdi. 2023-yilda

turizm xizmatlari eksporti hajmi 2017-yilga nisbatan 2 barobarga oshib, 1,6 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. Yurtimizga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 2017-yilda 2,7 mln. nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib qariyb 6 mln. nafarga yetdi.

Keyingi yillarda Qoraqalpog'istonni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamdagi bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda va o'zgarishlarni har bir qoraqalpoq aholisi bugun o'z hayotida his etyapti, dedi Plenumda so'zga chiqqan partiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi raisi, Jo'qorg'i Kengesi deputati Tojiboy Romanov.

Shu o'rinda o'tgan yillar davomida partiyaning 237 ta dasturiy maqsadlaridan 143 tasi bevosita Prezident Shavkat Mirziyoyevning farmon va qarorlari asosida amalga oshirilganini, 21 ta vazifa Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida ro'yobga chiqarilayotganligini ta'kidlash joiz.

Majlisda shuningdek, partiya dasturiy maqsadlarining muvaffaqiyatli amalga oshishi ko'p jihatdan keyingi yillarda Davlat rahbari boshchiligidagi amalga oshirilgan islohotlar natijasi ekanini ta'kidlandi.

Shu bilan birga, Plenumda Tadbirkorlar va ishbilanmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-

demokratik partiyasi bilan birgalikda mazkur yutuqlarni konstitutsiyaviy mustahkamlash bo'yicha ikki partiyaning tashabbusi parlament palatalari hamda xalqimiz tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlangani ta'kidlandi.

Pirovardida, mamlakatimiz tarixida ilk bor aholining yuqori darajadagi faolligi bilan yangi tahrirdagi Konstitutsiya - «Xalq Konstitutsiyasi» qabul qilindi. Qolaversa, referendumda ishtirok etgan xalqimiz ovozi - aslida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi amalga oshirilgan o'zgarishlarning e'tirofi ham bo'ldi.

Shundan kelib chiqib, Plenum qatnashchilari milliy yuksalishni amalda ta'minlayotgan, millat va Vatanga sadoqati, xalqparvarligini amalda isbot etgan Prezident - Shavkat Mirziyoyev nomzodini O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi bilan birgalikda qo'llab-quvvatlash lozim, degan xulosaga keldilar.

Plenumda ayni shu masalalar bo'yicha taniqli olim, Oliy Majlis Senati a'zosi Azamat Ziyov, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari, senator Minhojiddin Mirzo, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi Shaxnoza Joldasova, adabiyotshunos olim Shuhrat Rizayevlar so'zga chiqib, ko'rsatilgan nomzodning chinakam vatanparvar inson

ekanini, ajdodlarimiz oldidagi buyuk xizmatlari, millat yetakchisi sifatidagi fazilatlarini sanab, barcha partiyadoshlarimizni qo'llab-quvvatlashga chaqirdilar.

Shundan so'ng Plenumda, muddatidan avval Prezidentlik saylovida Shavkat Mirziyoyev nomzodini ilgari surish bo'yicha tegishli qaror qabul qilindi.

Tadbir ishtirokchilarining fikr-mulohazalari asosida esa partiya tarafdorlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan bo'lajak nomzodni S'ezdda ko'rib chiqish masalasi ma'qullanib, S'ezdning 31-may kuni o'tkazishga kelishib olindi.

Plenumda S'ezdga delegatlar saylash masalasida partiya hududiy konferensiyalarini o'tkazish to'g'risida ham qaror qabul qilindi. Partiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining Konferensiyalarida partiyaning navbatdan tashqari VIII S'ezdga delegatlar saylash bo'yicha vakillar sonini belgilash, S'ezdga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha Ishchi guruhni shakllantirish lozimligi ta'kidlanib, tegishli takliflar bildirildi.

Plenum yakunida muhokama etilgan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

Hamdam NIYOZOV,
partiya Markaziy kengashi
bo'lim boshlig'i

ENDI VAQTIDA TO'LANMAGAN 150 MING SO'M O'RNIGA

1,5 MLN. SO'M JARIMA TO'LANMAYDI

Inson qadrini kamsituvchi bunday norma bekor qilinmoqda, ya'ni endi jarima undiriladigan mablag' miqdoridan yuqori bo'lmisligi kerak.

Keyingi yillarda jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida avtomobillarni ijara va lizingga berishda firibgarlik holatlari borgan sari ko'paymoqda. 2020-yili 10 nafar shaxsga nisbatan shunday jinoyat bo'yicha ayblov hukmi chiqarilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 2 baravarga ortgan va 22 tani tashkil etgan. Fuqarolarga yetkazilgan zarar 2020-yildagi 8,2 mlrd. so'mdan 2021-yilda 69,3 mlrd. so'mga yetgan. Jabrlanganlar soni esa 16 baravarga ortib, 16805 kishini tashkil etgan.

Adliya vazirligi bunday qing'irliklarning oldini olish maqsadida «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga ijara va lizing munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi» qonun loyihasini tayyorladi.

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishida ushbu loyiha qay darajada natija berishi muhokama qilindi. Jumladan, fraksiya a'zosi Sherzod To'xtashev garovga qo'yilgan obyekt lizingga berilishi mumkinmi, degan savolni o'rta tashladi.

– Chunki lizing firmalarining barchasi garovga olingan avtomobillarni lizingga berib yuboryapti. Ya'ni, bankdan olingan katta miqdordagi kreditga avtomobil olinayapti. Garov sifatida avtomobilning o'zi qo'yilib, keyin ijarağa berib yuborilayapti. Buning ortidan firibgarlik kelib chiqib, fuqarolar jabr ko'ryapti. Ushbu qonun loyihasi bunday qing'irliklarning oldini olishni qanchalik kafolatlaydi? – dedi deputat. Qonun tashabbuskorlarining fikricha, endilikda ushbu loyiha bilan garovga qo'yilgan obyekt lizingga berish qat'iy taqiqlanayotir. Qizg'in muhokamalardan so'ng ushbu qonun loyihasi ma'qullandi.

«Ma'muriy jarimalarni ijro etish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun loyihasi ham deputatlar tomonidan qizg'in muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, amaliyotda Majburiy ijro byurosi tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy jarima miqdorini undirilishi lozim bo'lgan summaga nisbatan bir necha barobar yuqori belgilash holatlari kuzatilmoqda. Masalan, qarzdorlik 150 ming so'm bo'lsa-da, o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun shaxs Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddasi bilan hatto 1,5 mln. so'mgacha jarimaga tortilishi mumkin. Shu bois, endilikda ushbu qonun loyihasi bilan MIB tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy jarima miqdori ijro hujjatida undirilishi belgilangan summadan yuqori bo'lmisligi belgilanyapti.

Jumladan, agar fuqaro BHMning 10 baravarigacha (3 300 000) bo'lgan miqdorda undiriladigan summani uzrsiz sabablarga ko'ra belgilangan muddatda to'lama, 5 baravarigacha (1 650 000 so'm), mansabdorlar esa 10 baravarigacha miqdorda jarimaga tortiladi. Undiriladigan summa 10 baravardan ortiq bo'lgan holatda jarima miqdori fuqarolar uchun BHMning 10 baravaridan, mansabdorlar uchun esa 15 baravaridan ortiq bo'lmisligi belgilanyapti. Shuningdek, bugungi kunda MIBning ijrochi maqomidagi istalgan xodimda ma'muriy jarimaga tortish vakolatining mavjudligi idoraga kelgan har qanday fuqaroning ba'zan asossiz jarima bilan «siylanishi»ga va bu aholi noroziligiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli, ushbu qonun loyihasi bilan MIB nomidan ma'muriy jarima qo'llash vakolatiga ega bo'lgan shaxslar soni qisqartirilmoqda. Endilikda Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi nomidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar ko'rib chiqish hamda



2020-yili 10 nafar shaxsga nisbatan shunday jinoyat bo'yicha ayblov hukmi chiqarilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 2 baravarga ortgan va 22 tani tashkil etgan. Fuqarolarga yetkazilgan zarar 2020-yildagi 8,2 mlrd. so'mdan 2021-yilda 69,3 mlrd. so'mga yetgan.

ma'muriy jazo qo'llashga faqatgina O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat ijrochisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining bosh davlat ijrochilari, ularning o'rinbosarlari, shuningdek, Majburiy ijro byurosining tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari haqli ekani belgilanyapti.

Fraksiya a'zolari bu o'zgarishlar «Inson qadri uchun» tamoyili asosidagi o'zgarishlardan biri ekanini ta'kidlab, qonun loyihasini qo'llab-quvvatladilar. Deputatlar «O'lchash vositalarini qiyoslashdan o'tkazish sohasiga xususiy sektor jalb qilinishi munosabati bilan «Metrologiya to'g'risidagi» O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi» qonun loyihasini ham ko'rib chiqdilar.

Ta'kidlanganidek, ushbu qonun loyihasi metrologiya xizmatlarini ko'rsatish sohasiga xususiy sektorni keng jalb etish hamda bu boradagi davlat tashkilotlarining eksklyuziv huquqlarini bekor qilish orqali mavjud monopoliyalarni bartaraf etish maqsadida ishlab chiqilgan. Ya'ni, loyiha o'lchash vositalarini qiyoslash xizmatlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hisoblanmaydigan yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari

tomonidan ko'rsatilishiga ruxsat berish ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, loyiha o'lchash natijalari davlat ahamiyatiga ega bo'lgan o'lchash vositalari turkumlari ro'yxatini hukumat tomonidan tasdiqlash belgilanmoqda.

Jumladan, qonunga kiritilayotgan normaga ko'ra, davlat ahamiyatiga molik sohalarda aholi salomatligi va xavfsizligini ta'minlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, davlat resurslarini hisobga olish kabilarda o'lchash vositalarining metrologiya xizmati, davlat metrologiya xizmati hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining metrologiya xizmatlari tomonidan, sanoat tarmoqlarida qo'llaniladigan o'lchash vositalarini qiyoslash esa xususiy sektor tomonidan amalga oshirilishi belgilanyapti. Shu o'rinda, metrologiya xizmatiga biron bir bersak. Metrologiya, ya'ni o'lchashlar inson hayotining ajralmas bo'lagiga aylangan. Ertalab uyg'onganimiz zahoti vaqtni belgilaymiz, choy ichganda haroratni, ishga ketayotganda masofani, ishga borganida esa ishimiz unumdorligini...


YUNESKO ma'lumotiga ko'ra, hozirda inson faoliyatining 3000 dan ortiq sohasi aynan o'lchashlar bilan bog'liq. Ayni paytda ushbu masalalar bilan shug'ullanadigan alohida fan ham mavjud bo'lib, unga «metrologiya» deb nom berilgan. Mamlakatimizda ayni paytda amaldagi o'lchash vositalari turkumlarining ro'yxati 315 ta pozitsiyadan iborat bo'lib, shundan 91 tasini qiyoslashdan o'tkazish ko'zda tutilmoqda. Qayd etilishicha, qonun loyihasi metrologiya bilan bog'liq qoidalarni xalqaro talablar bilan muvofiqlashtirilishini ta'minlaydi. Shu asnoda mahsulot, jarayonlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi masalalarida iste'molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilishga, eng muhimi, mahsulot sifatini va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish»
mxbiri

MUNOSABAT

”

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ana shu moddalarning hammasi yuzaga chiqishi va xalqimiz hayotiga kirishi uchun tizimli harakatlar bo'lganining guvohi bo'ldik.



Bu ZARURAT EDI!

Yangi tahrirdagi Bosh Qomusimizga kiritilgan o'zgarishlar xalqimizning o'z kelajagiga befarq qaramaganini uning tafakkuri, o'zligini anglashi, ma'lum bir darajada tadrijiy takomilga yetganini ko'rsatdi. Ta'kidlash joizki, yangi Konstitutsiya xalqimizning istak-irodasi va ixtiyori bilan yuzaga chiqqan Asosiy Qomusdir.

Kezi kelganda yana bir gapni aytish joiz: yangi Konstitutsiya qabul qilingani 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyamizning tarixiyli yo'qolganini anglatmaydi, balki zamon o'tgan 32 yil mobaynida nihoyatda qattiq o'zgarigan dalolat beradi. Tan olaylik, bugunga kelib global dunyoning qiyofasi, tamoyillari, ijtimoiy-madaniy hayot, hatto inson borlig'iga bo'lgan munosabat o'zgardi. 1991-yilda qabul qilingan Mustaqilligimiz deklaratsiyasi, 1992-yilda Konstitutsiya qabul qilingan paytdagi odamlar bilan hozirgi odamlarning kayfiyatlarini-yu qarashlari bir-biridan tubdan farq qiladi. To'g'ri, o'tgan yillar davomida ayrim omillar sabab 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaning ko'plab moddalari hayotda o'z aksini topa olmagan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham keyingi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ana shu moddalarning hammasi yuzaga chiqishi va xalqimiz hayotiga kirishi uchun tizimli harakatlar bo'lganining guvohi bo'ldik. Endi yangilangan Bosh Qonunimizga ko'ra, har bir inson o'z boshpanasiga ega bo'lishi kerak. Afsuski, 1992-yilda buni tasavvur ham qilib bo'lmadi. Yoki kambag'allikni qisqartirish masalasini olaylik, kambag'allikni yengib o'tish, har bir inson uchun munosib hayot sharoitlarini yaratishning imkoni yo'q edi o'sha vaqtlarda. Bunga

ushbu sohada ham inqilobiy o'zgarishlar kuzatilyapti. Paxtamizni qudrati, kuchi, energiyasi neftdan, gazdan, suvdan chiqadigan energiyadan yoki boshqa inson ehtiyoji uchun suv va havodek zarur bo'lgan energiya manbalarining qiymatidan kam emasligini nihoyat tushunib turibmiz. Ehtimol o'sha davrda ham shunday tushunchalar bo'lgandir. Lekin bu butunlay boshqa yo'nalish kasb etgandi. Kecha gazetada o'qib qoldim: suvlarni yopiq quvurlar orqali paxta ildiziga yetkazib berish usullariga o'tilyapti ekan. Bu kabi iqtisodiy yutuqlar O'zbekistonda yuksaltiradi, qudratiga qudrat qo'shadi, bu esa shubhasiz, davlatning har bir fuqarosiga ham ta'sir etadi.

Yoki inson erkinliklarini oling: inson erkinliklarini anglash nuqtayi nazaridan yangilangan Bosh Qomusimiz ancha oldinga, yuqori bosqichga ko'tarildi. Tabiiyki, bu jihatlar oldingi Konstitutsiyada ham bor edi. Biziz mumkin ham emas edi. Ya'ni, unda ham O'zbekiston fuqarosining qanday xususiyatlariga ega bo'lishi, shaxs erkinligi va huquqlari nimalarda aks etishi kerakligi qamrab olingan edi. Ammo yangi tahrirdagi Asosiy Qonunimizda bu jihatlar zamon nuqtayi nazaridan qaraldi, eng asosiysi Konstitutsiya takomillashdi va u orqali inson huquqlarini anglashimiz chuqurlashdi. Shuning uchun ham Konstitutsiya yangilandi, deb emas, u takomillashdi, kamolga yetyapti deb tushunishimiz kerak. Ya'ni, inson erki, haq-huquqlari to'g'risidagi tushunchalar, qoidalar takomillashib, odamlarning bugungi ehtiyoj va talablariga javob beryapti. Mana shularning hammasi yangi Konstitutsiyada aks etishi zarur edi. Shuni ham alohida

”

Yangi O'zbekiston yoshlariga bo'lgan munosabat ularni har tomonlama ilm-ma'rifatli bo'lish, kasb-kor o'rganish, mutaxassislikni egallashlariga qaratilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda, yangi ochilayotgan zamonaviy universitetlar men bilan sizga emas, aynan bugungi kun yoshlari uchun ochilyapti.

erishish uchun endigina mustaqillikka erishgan, o'z taraqqiyot yo'lini belgilash ostonasida turgan davlatning qurbi yetmasdi, albatta. 30 yildan ko'proq vaqt o'tib, o'sha Konstitutsiya mohiyatida bugungi o'zgarishlarni amalga oshirish zarurati tug'ildi. Yangi Konstitutsiyaga kiritilgan normal orasida o'qituvchilar sha'ni, qadri-qimmat, jamiyatdagi mavqeyi, oliy ta'limga oid yangiliklar shu qadar insoniy, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'ldiki, bularni 1992-yil sharoitida hatto tasavvur etish ham qiyin edi. Yoki bo'lmasa, qishloq xo'jaligi sohasini olaylik. Bugun

qayd etish joizki, Yangi Konstitutsiyadagi o'zgarishlarning miqyosi juda keng bo'lib, hammasini birma-bir izohlashga ko'p vaqt kerak. Ammo bir muhim masala – yoshlar siyosati, ularning jamiyatda tutgan o'rnini, o'qishi, ishlashi, o'zini kamolga yetkazishi nuqtayi nazaridan juda ko'p yangi qoidalar kiritilganini aytish joiz. Mana bir misol: O'zbekistonda yaqin yillar ichida oliy ta'lim muassasalarining ko'paygani bois juda ko'p yoshlar oliy ta'lim olish, kasb-hunar egallash va shu orqali o'z kelajagini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Eng muhimi, davlat bunga kafolat berayapti. Yoshlarga qaratilgan e'tiborning asosiy qismi ularning har biri o'zi qiziqqan sohaning mutaxassisi bo'lishi uchun, ta'lim olib, biror joyga ishga borganida havaskordek ishlamasligiga qaratilgan. Albatta, har bir kasbning faoliyat maydonlarida o'z qonun-qoidalarini, qo'llanmalarini bilan birga yo'l-yo'riqlari ham bor. Yoshlar shularni mukammal egallasa, albatta muvaffaqiyat qozonishadi, shuningdek, boshqalarning muvaffaqiyatiga ham sharoit yaratishadi, ya'ni yordam berishadi. Menimcha, Yangi O'zbekiston yoshlariga bo'lgan munosabat ularni har tomonlama ilm-ma'rifatli bo'lish, kasb-kor o'rganish, mutaxassislikni egallashlariga qaratilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda, yangi

ochilayotgan zamonaviy universitetlar men bilan sizga emas, aynan bugungi kun yoshlari uchun ochilyapti. Ana shunday zamonaviy oliy o'quv yurtlarida ta'lim olgan yoshlar dunyoning istalgan joyiga borib, o'sha yerni eng ilg'or kadrlari bilan tengma-teng ishlash darajasiga ega bo'lishlari nazarda tutilyapti. Yangilangan Konstitutsiyamiz xususida gap ketganida Prezidentimizning keyingi yillarda davlatimiz ijtimoiy-huquqiy davlat bo'lishi kerak degan g'oyani ilgari surayotganlarini ta'kidlash joiz. Bu rivojlangan davlatlar uchun yangilik bo'lmasligi mumkin. Chunki ular o'z davlatini shu g'oyaga asoslangan holda qurgan va quryaptilar, shuning uchun ham ular cheksiz taraqqiyot yo'lga chiqqanlar. Ana shuni nazarda tutib, O'zbekistonda ham davlat hokimiyatining ijtimoiy-huquqiy asoslarga ega bo'lishi kerakligi to'g'risidagi g'oya zamirida juda katta ma'no borligini anglashimiz joiz. Zotan, ijtimoiy davlat har qanday insonni ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoya qilishi davlat mustaqilligi va erkinligini himoya qilishga qaratilgan g'oyadir. Bir so'z bilan aytganda, taraqqiyotimizni belgilaydigan yangi Konstitutsiyamizning qabul qilinganligi xalqimizni yangi taraqqiyot yo'lga olib chiqishning barcha imkoniyatlarini yaratadi.

Ibrohim G'OFUROV,
O'zbekiston
Qahramoni

O'ZLIKNI ANGLASH, TARIXNI BILISHDAN BOSHLANADI

9-may – “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan Temuriylar tarixi davlat muzeyida “O'tgan kunlar xotirasi – kelajak mayog'i” mavzusida konferensiya tashkil qilindi. Tadbirda partiya Markaziy kengashi vakillari, deputatlar, tarixshunos va muzeyshunos olimlar, Yoshlar parlamenti a'zolari ishtirok etib, inson yaxshi, tinch va xotirjam yashashi uchun avvalo tinchlik kerakligi, bunday buyuk ne'matni yo'qotgan xonadon ham, jamiyat ham aslo xotirjam bo'la olmasligini ta'kidladilar.



Chunki yurt tinchligi va xotirjamligi barqaror taraqqiyot garovidir. Shu bois, barcha zamonlarda tinchlik qadrlangan, buning uchun kerak bo'lsa jon berib, jon olingan... Azaldan tinchliksevar xalqimiz. Tinchlikni o'z orzu-tilishlarimiz, maqsad-muddaolarimiz ro'yobga chiqishining asosiy kafolati deb ham bilamiz. Shuning uchun doimo Yaratgandan tinchlik va omonlik so'raymiz. Bugungi osoyishta, erkin va farovon hayot uchun aziz jonini fido qilgan ajdodlarimiz, erkinlik uchun kurashgan millat qahramonlari xotirasini yod etib, ularning ezgu ishlarini munosib davom ettirish olibanob xalqimizga xos azaliy qadriyat sanaladi. El-yurt tinchligi va ozodligi uchun kurashgan mard va jasur insonlar xotirasini yod etish orqali esa Vatan uchun jonini fido qilgan qahramon ota-bobolarimizning nomlarini sharaflaymiz, ularga yuksak hurmat va ehtirom ko'rsatamiz.

Chunki xotira insonning insoniyatini anglatadigan tushuncha, uni o'tmish va istiqbol bilan bog'lab turadigan buyuk ruhiy-ma'naviy qudrat hamdir. Konferensiya moderatori – partiya Markaziy kengashi raisi o'rinbosari Feruza Muhammedjanova ushbu so'zlarni ta'kidlar ekan, xalqimiz uchun Xotira va qadrlash kuni nihoyatda muhim ahamiyatga ega ekanini, bu sana «O'zlikni anglash, tarixni bilishdan boshlanadi» degan ezgu g'oyani ustuvor bilgan «Milliy tiklanish» partiyasi uchun alohida ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi. – «Milliy tiklanish» «Inson o'zgarasa, jamiyat o'zgaradi» shiorini bejiz ilgari surayotgani yo'q. Xabaringiz bor, yaqinda xalqimiz, mamlakatimiz hayotida tom ma'nodagi tarixiy voqe'likning guvohi bo'ldi. Yangilangan Konstitutsiyamiz birinchi marta umumxalq referendumini asosida qabul qilindi. Ahamiyatli



tomoni, Yangi O'zbekiston islohotlarining huquqiy asosini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ushbu Qomusni yaratishda uch ming yillik davlatchilik tariximiz tajribasiga tayanildi, – dedi Feruza Muhammedjanova. Tadbirda so'zga chiqqan filologiya fanlari doktori, akademik Naim Karimov Xotira va qadrlash kuni nafaqat Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, balki yurtimiz ozodligi, tinchligi, farovonligi yo'lida jon fido qilgan vatandoshlarimiz ham esga olinishini ta'kidladi. – Jumladan, Ona Vatanimizni mustaqil, ozod holda ko'rishni bosh maqsad bilgan va bu yo'lida shahid bo'lgan jaded bobolarimiz ham xotirlanadi, – dedi Naim Karimov va ishtirokchilarga jadedchilik harakati, istiqlolimiz uchun kurashgan jaded bobolarimiz tarixi haqida batafsil ma'lumotlar berdi. Tadbirda tarix fanlari doktori, professor Mirsodiq Is'hoqov,

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori Jannat Ismailova, yozuvchi, jurnalist Hakim Sattoriy, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi Bahrom Irzayevlar ham so'zga chiqdi. Ta'kidlash lozim, 9-may – Xotira va qadrlash kuni xalqimizning chinakam milliy bayramiga aylandi. Ayniqsa, uning yoshlarni yurtparvarlik, mehnatsevarlik, ajdodlarimizning eng yaxshi an'analardan faxrlanish, ularga munosib vorislar bo'lish ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadbirda soha mutaxassislari «Yurt mustaqilligi uchun kurashgan tarixiy shaxslar», «Sohibqiron abadiyati», «Istiqloq uchun kurashganlar», «O'zbek xalqining 1941 – 1945-yillar urushidagi ishtiroki» mavzularida ma'ruzalar ham eshitildi.

Muxlisa ERGASHEVA,
partiya Markaziy kengashi
bo'lim boshlig'i

Teatr oyligi

YOSHLAR UCHUN TEATR OYLIGI



Maktabgacha va maktab ta'limi, Madaniyat va turizm vazirliklari hamda «Mahalla» xayriya jamoat fondining qo'shma qaroriga asosan, may oyi mamlakatimizda «Teatr oyligi» deb e'lon qilingan. Mazkur oylik doirasida Andijon viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi, Madaniyat va turizm boshqarmalari, «Mahalla» xayriya jamoat fondi viloyat bo'limi tomonidan oliy o'quv yurtlari talabalari, umumta'lim maktablari o'quvchilari bog'cha tarbiyalanuvchilarining maroqli madaniy hordiq chiqarishi hamda ma'naviy oziqa olishlarini ta'minlash maqsadida qator tadbirlar o'tkazilmoqda.

Oylik doirasida viloyatda faoliyat olib borayotgan Z.M.Bobur nomli viloyat teatri, Andijon yoshlar hamda viloyat qo'g'irchoq teatrlari ijodiy jamoalari tomonidan tuman va shaharlardagi madaniyat saroylari, oliygo'harlar, umumta'lim maktablari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli teatr tomoshalari namoyish etilmoqda. – Teatrimiz jamoasi shu kunlarda Bo'ston tumani Madaniyat saroyida maktab o'quvchilari uchun o'zbek xalq ertagi asosida sahnalashtirilgan «Ur to'qmoq» spektaklini namoyish etmoqda, – deydi Andijon yoshlar teatri direktori Bekzod Homidov. – Dars mashg'ulotlaridan keyin tumandagi umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari madaniyat

saroyiga kelib, spektaklimizni tomosha qilmoqda, ko'ngilli hordiq chiqarmoqda. Eng muhimi, bolajonlarning teatr san'atiga bo'lgan qiziqishi ortmoqda, qolaversa, sahna asarlari orqali qalblarida ezgulik hamisha yovuzlik ustidan g'alaba qozonadi, degan ishonch mustahkamlanmoqda. Bundan tashqari, Andijon yoshlar teatri ijodiy jamoasi tomonidan Andijon mashinasozlik institutida «Maysaraning ishi», Andijon davlat chet tillar institutida «To'maris» spektakllari namoyish etildi. Viloyatda «Teatr oyligi» doirasida teatrlar jamoalarining spektakli va teatr tomoshalari namoyishlari davom etmoqda.

Dunyoda har bir millat va xalqning o'zligini anglashi va asrashi, sha'nini ulug'lashida qadriyatlarining o'rni beqiyos. Xalqimizning minglab yillik boy tarixi, ma'naviy merosi, turmush tarzi, hayotiy qarashlari va e'tiqodidan kelib chiqqan holda muhim milliy qadriyatlarimiz ro'yxati sifatida quyidagilarni taklif qilmoqchimiz.

1. OTA-ONAGA EHTIROM.
2. TOZALIK.
3. HARAKATDA BARAKA.
4. O'ZBEK TILI.
5. DINIY BAG'RIKENGLIK.
6. SO'Z ERKINLIGI.
7. LAFZ (QONUN, BURCH VA KELISHUVGA SADOQAT).
8. YELKADOSHLIK.
9. MEHMONDO'STLIK.
10. ROZI-RIZOLIK.



Milliy

QADRIYATLAR

Nima uchun bu qadriyatlar muhim? Milliy qadriyatlarining aniq shakllantirilgan ro'yxati bormi yoki bo'lishi kerakmi?

Keling, bu masalaga kengroq yondashaylik. Shu chog'ga qadar olimu mutaxassislar "qadriyat" tushunchasiga turlicha ta'rif bergan. Ulardan ayrimlarini keltirib o'tamiz: "Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholalanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmo'ini tushunmoq'imiz lozim". "Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi". "Qadriyat inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadriyatini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha". "Qadriyat – voqealardagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha".

Demak, bu ta'riflardan qadriyat – biz uchun qadrlil bo'lgan urf-odat va an'analarimiz, hayotiy prinsiplarimiz, deb xulosa qilish mumkin. O'z navbatida qadriyatlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'linadi, ya'ni millat, xalq uchun xos bo'lgan qadriyatlar milliy qadriyatlar, butun bashariyat uchun xos bo'lgan qadriyatlar esa umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi.

Milliy qadriyatlarini ham mohiyatiga ko'ra, tabiiy, moddiy, ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, axloqiy qadriyatlarga ajratish mumkin. Masalan, minglab yillar davomida shakllangan boy ma'naviy xazinamiz biz uchun ma'naviy qadriyat, halollik, poklik, ishonchlik esa iqtisodiy qadriyatdir. Shunday bo'lsa-da, ko'pchilik mutaxassislar insonning o'zi, hayoti, huquqi va erki, sog'lom va farovon turmushini qadriyatlarining eng oliysi, deb hisoblaydi.

Xo'sh, bugungi kunda dunyo mamlakatlarida qadriyat masalasiga qanday qarashadi? Ayrim misollarni keltirib o'tsak.

AQSH

Ma'lumki, Amerika Qo'shma Shtatlari xalqini turli xil millat va elat vakillari tashkil etadi, aniqrog'i bitta millatning yaqqol ustunligi ko'rinmaydi, boshqacha aytganda qurama xalq. Bir qarashda ularning har biri uchun o'ziga xos qadriyat bordek. Bu

fikr ham to'g'ri, ammo millati va tilidan qat'iy nazar, butun mamlakat xalqi uchun bir xilda taalluqli qadriyatlar ham bor. Hatto ularning aniq ro'yxati ham shakllantirilgan. AQSH Davlat departamentining sayti (<https://www.state.gov/courses/answeringdifficultquestions/assets/m/resources/DifficultQuestions-AmericanValues.pdf>) da berilgan ma'lumotga ko'ra, quyidagilar amerikaliklar uchun qadriyat hisoblanadi:

1. Independence (Mustaqillik).
2. Equality (Tenglik).
3. Individualism (Individuallik).
4. Democracy (Demokratiya).
5. Nationalism (Millatparvarlik).
6. Meritocracy (Meritokratiya).
7. Directness (To'g'rilik).
8. Innovation (Innovatsiya).
9. Consumerism (Iste'molchilik).
10. Informality (Norasmiylik).
11. Efficient use of time (Vaqtdan unumli foydalanish).

E'tiborlisi, saytdagi manzilga qaralsa, bu ma'lumot "qiyin savollarga javob berish" (answering difficult questions) qismida berilgan. Chunki bu rostdan ham juda qiyin savol. Yaqinlaringizdan biri "bizning qadriyatlarimiz nima?" deb savol berganda javob qaytarishga urinib ko'ringchi.

DANIYA

Daniyaliklar baxtiyorlik indeksi bo'yicha dunyoda eng oldingi o'rinlarda turadi. Ana shu kichkina mamlakat ham o'z qadriyatlarini ro'yxatini aniqlab olgan. Bunda aholi orasida so'rov o'tkazish usulidan foydalanildi. So'rovda 325 ming kishi ishtirok etdi va ulardan 2500 ta taklif kelib tushdi. 2016-yilning 12-dekabrda Denmark Canon (<https://www.danmarkskanon.dk/>) daniyaliklar uchun qadriyatlar ro'yxatini shakllantirgan.

1. Welfare society (Jamiyat farovonligi).
2. Freedom (Ozodlik).
3. Trust (Ishonch).

4. Equality for the law (Qonun oldida tenglik).

5. Gender equality (Gender tengligi).

6. The Danish language (Daniyaliklar tili).

7. Associations and voluntary work (Uyushmalar va ko'ngillilar ishi).

8. Liberality/tolerance (Erkinlik/tolerantlik).

9. Hygge. Hygge is seen as a special way of being together in a relaxing, nice atmosphere (Xyugg bu xotirjam qiluvchi yoqimli bir muhitda suhbat qurishning o'ziga xos vositasi).

10. The Christian heritage (Nasroniylar merosi).

E'tibor qilgan bo'lsangiz, daniyaliklar umuminsoniy ahamiyatga ega qadriyatlar bilan bir qatorda o'zlarigagina xos bo'lgan qadriyatlarini ham ilgari surmoqda. Buni ona tiliga, urf-odatlar va diniy e'tiqodga bo'lgan hurmat misolida ham ko'rish mumkin.

BUYUK BRITANIYA

Britaniyaliklar ham "Prevent" ("Oldini olish") strategiyasi doirasida 2011-yilda o'z qadriyatlarini aniqlab olgan. Mana ular:

1. Democracy (Demokratiya).
2. Rule of Law (Qonun ustuvorligi).
3. Respect (Hurmat).
4. Tolerance (Tolerantlik, bag'rikenglik).
5. Individual Liberty (Shaxsiy erkinlik).

Bu qadriyatlarini Britaniya maktablarida targ'ib qilish bo'yicha qo'llanma ham rasman tasdiqlangan (<https://www.gov.uk/government/news/guidance-on-promoting-british-values-in-schools-published>). Unda shunday deyilgan: "Biz har bir maktab Britaniyadagi asosiy qadriyatlar bo'lgan demokratiya, qonun ustuvorligi, shaxs erkinligi va turli xil din vakillariga nisbatan hurmat va bag'rikenglikni targ'ib qilishini istaymiz".

ROSSIYA

Rossiya Federatsiyasida 2025-yilgacha bo'lgan davrda tarbiyani rivojlantirish strategiyasida (<https://rg.ru/2015/06/08/vospitanie-dok.html>) insonparvarlik, adolatlilik, or-nomus, iroda, shaxsiy qadriyatlar, e'tiqod va ezigulik, o'zi, oilasi hamda Vatani oldidagi ma'naviy burchini bajarishga intilish rossiyaliklarning qadriyatlarini sifatida belgilangan.

Qadriyatlar nima uchun kerak?

Aytib o'tganimizdek, dunyoda har bir millat va xalqning o'zligini anglashi va asrashi, sha'nini ulug'lashida qadriyatlarining o'rni beqiyos. U o'tmishni bugun bilan bog'lab, kelajakka dadil qadam qo'yishning muhim omili. U millatdan qat'iy nazar mamlakat xalqini jipslashtirish va yagona kuch sifatida ertangi kunga teran nigoh tashlash vositasi. Teran va aniq fikrlash esa rejalashtirish ufqini kengaytiradi, ertangi kun o'zi bilan nima olib kelishiga oydinlik kiritadi. Bu esa hamma vaqt halovat beradi. Demak jamiyatdagi tinchlik, barqarorlik, taraqqiyot va farovonlik bevosita qadriyatlar bilan bog'liq. Qadriyatlarini belgilash va targ'ib qilishga qaratilgan sa'y-harakatlarni ham shu bilan izohlash mumkin.

Bizda ham qadriyatlar ro'yxatiga ehtiyoj bormi? Umuman olganda, dunyoda o'ziga xos qadriyatlar bo'lmagan millatning o'zi yo'q. Biz ham istisno emasmiz. Biz ham tariximiz, yashash tarzimiz, ma'naviyatimiz, madaniyatimiz bilan uzviy bog'liq bo'lgan qadriyatlarga egamiz. Ammo ularning eng muhimlarini belgilab olish va targ'ib etish zarurati ham e'tibordan chetda qoldirilmay kerak. Bizda ham bunga ehtiyoj bor, biroq hozircha bu borada aniq bir to'xtamga kelgani yo'q.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham qadriyatlarimiz o'z aksini topgan. Buni xususan,

bunyodkorlik g'oyalarga sodiqlik, yuksak mas'uliyat, ijtimoiy adolatparvarlik, insonparvarlik, milliy totuvlik, xalqimizning urf-odatlarini va an'analarini, mafkuralar xilma-xilligi va erkinligi, ijtimoiy adolat, fuqarolarning qonun oldidagi tengligi, vijdon erkinligi, adolatli mehnat kabi tamoyillar misolida ko'rish mumkin. Konstitutsiya bu hujjat. Konstitutsiyada belgilangan moddalarning hayotdagi ijrosini ta'minlash uchun unda aks ettirilgan g'oyalarni qo'llab-quvvatlash kerak. Buning uchun qadriyatlar bir-biriga mos tushishi kerak. Bu yerda qadriyatlarimizni aniqlab olish va tagiga chizib qo'yish fursati yetgandir.

Agar biz Andijon, Surxondaryo va Xorazmdagi yoshlardan qadriyatlarimiz nima, deb so'rasak, ular bir-biriga 90% yaqin qadriyatlarini aytisa, demak bizda hammasi yaxshi. Ammo «qadriyatlarimiz» deb 100 marta eshitgan 14 yoshli bola, ularning to'liq ro'yxatini qayerdan ko'rib o'rganishi mumkin? Hammaga tanishtirilgan qadriyatlar ro'yxati bormi, degan savol yuzaga keladi. Hozircha yo'q. Bizda ham bu borada bir to'xtamga kelib, aniq qilib belgilasak, u yoki bu hodisa, qonun va xatti-harakatni baholashda qo'l keladigan prizma yoki mezonni yaratib olgan bo'lardik.

Chunki qonun va qarorlardan tashqari qadriyatlar maydoni ham bir yoqadan bosh chiqarish, u yoki bu masalada konsensusga kelishda muhim qo'llab-quvvatlovchi omil bo'lib xizmat qiladi. Eng muhimi, yoshlarning maktabni zamonaviy va yangi O'zbekiston jamiyatiga tayyor va mos bo'lib bitirishida yordam beradi. Ya'ni uyg'unlashtirish masalasini hal etadi.

Masalaning yana bir jihati shundaki, agar qadriyatlarimiz ro'yxatini o'zimiz aniqlab olmasak, kimdir chetdan turib uni biz uchun aniqlab berishga urinadi. Bunday holatda taqdirimizni biz emas,

boshqalar belgilagan kun tartibiga ko'ra yaratishimizga to'g'ri keladi.

Yana bir boshqa variant – «qadriyatlar aniq belgilab bo'lmaydigan murakkab mavhum tushuncha va bu aniqlashtirib olish borasidagi urinishlar ish bermaydi, bu sun'iy yasama bo'lib qolaveradi» degan xulosaga kelish. Lekin nima uchun boshqa mamlakatlarda o'z qadriyatlarini aniqlab olish va yozib qo'yishga ehtiyoj tug'ildi? Chunki bu har bir mamlakat uchun bir qator muhim vazifalarni hal etadi: majoziy ma'nodagi DNKni saqlab qolish, dunyo ahliga biz kim ekanligimizni va kim bo'lib qolishimizni bildirish, uyg'unlikni yaratish, o'tmishdan kelajakka foydali dars, omonat, tirgak va mezonlarni yetkazish.

Har tomonidan muhokama qilingan va tasdiqlangan qadriyatlar suv va havodan kerak bo'ladi. Buni qancha tezroq aniqlab olish, shuncha yaxshi. Keyingi bosqich bu qadriyatlarini yoshlar bilan baham ko'rish, ularga shu qadriyatlarga suyanish va unga sodiq qolishni tavsiya etish, bu qadriyatlar yuk emas, bo'ron paytida boshpana, oyog'dagi tosh emas, kuch beradigan tirgak bo'lishini tushuntirish.

Agar yoshlar bu haqida fikr yuritishni lozim topib, shu aniqlab olinadigan qadriyatlarini ongli ravishda qabul qilsa va ularning zamirida katta hikmat borligiga ishonsa, demak bu qadriyatlar yashab qoladi.

BIZNING MILLIY QADRIYATLARIMIZ

Dunyoda har bir millat va xalqning o'zligini anglashi va asrashi, sha'nini ulug'lashida qadriyatlarining o'rni beqiyos. Xalqimizning minglab yillik boy tarixi, ha'votiy merosi, turmush tarzi, maynoviy qarashlari va e'tiqodidan kelib chiqqan holda muhim milliy qadriyatlarimiz ro'yxati sifatida quyidagilarni taklif qilmoqchimiz.

1. OTA-ONAGA EHTIROM.
2. TOZALIK.
3. HARAKATDA BARAKA.
4. O'ZBEK TILI.
5. DINIY BAG'RIKENGLIK.
6. SO'Z ERKINLIGI.
7. LAFZ (QONUN, BURCH VA KELISHUVGA SADOQAT).
8. YELKADOSHLIK.
9. MEHMONDO'STLIK.
10. ROZI-RIZOLIK.

Albatta, ushbu qadriyatlar ro'yxatini tugal deyish noo'rin. Uni takomillashtirish uchun keng jamoatchilik, ommaning ham takliflari inobatga olinishi zarur. Ro'yxat yurt ziyolilari, muhokamalari va tahlillar, milliy maslahat orqali qancha tez aniqlansa, shuncha yaxshi. Muhimi dastlabki qadamni qo'yish.

1. OTA-ONAGA EHTIROM

Ma'lumki, murg'akning ulg'ayib kamol topishida ota-onaning roli nihoyatda katta. O'z navbatida, farzand tarbiyasi ham ota-onadan juda katta mas'uliyatni talab qiladi. Ana shunday mas'uliyatni vazifani uddalay olgan ota-onalar yurt koriga yaraydigan, bilimli va tarbiyali farzandlarni voyaga yetkazadi. Farzand ota-onaga uchun ulug' bir ne'mat bo'lgani kabi, o'z navbatida farzandlar ham ota-onasini hurmat qilishi, e'zozlashi xalqimizga xos milliy qadriyatlardir. Ota-onaga bilan muloyim gaplashish, ehtirom ko'rsatish, maslahatlashish, oziq-ovqati va kiyim-kechagidan xabar olish farzandlarining ota-onaga rizoligini olishidagi muhim amallardir. Farzandlarning ota-onaga g'amxo'rlik qilishi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham belgilab qo'yilgan.

Ota-onaga hurmat va inson kapitalining rivojlanishi orasida empirik bog'liqlik mavjud. Keksalarga ehtirom insonni jismonan va ruhan sog'lom, kuchli va ishonchli qiladi. U boshqalarni hurmat qiladigan yaxshi hamkor bo'la oladigan. (Maslou va Perls). G'amxo'rlik qilish qobiliyati shaxsiy o'sish, o'zlikni anglash uchun zarur shartdir (Erikson va Maslou).

2017-yilda AQSHda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ota-onasini hurmat qiladigan insonlarda martaba va shaxsiy hayotda muvaffaqiyat qozonish ehtimoli ko'proqligi aniqlangan. Ya'ni ota-onasini hurmat qiladigan odamlarning oliy ma'lumot olishi, yuqori maoshi ishga joylashishi, barqaror munosabatlarga kirishishi, baxtli va barqaror turmush qurishi bilan bog'liq holatlar ko'proq kuzatilgan. Bu shuningdek, ota-onasini hurmat qiladigan bolalarning jamiyatda sog'lom turmush tarzi va mas'uliyatli xatti-harakatlarga (kognitiv va nokognitiv ko'nikmalarga) moyilligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ota-onaga hurmat yuqori darajadagi o'z-o'zini tarbiyalash va majburiyat bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, ish va shaxsiy hayotda muvaffaqiyat qozonish shartlaridan biri hisoblanadi.

2. TOZALIK

Xalqimizning azaliy qadriyatlaridan yana biri bu tozalikni rioya qilish. Chunki tozalik, poklik, saranjom-sarishtalik bor joyda qut-baraka bo'ladi. Eng muhim tozalik salomatligimizni asrashning ham muhim shartidir. Bundan tashqari tozalik, ozodalikning estetik ahmiyatini ham unutmastlik kerak. Tozalik qalblarga ko'tarinki kayfiyat, quvonch baxsh etib, kishini ruhlantiradi.

Sanitariya holati (tozalik) va xastaliklar o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud. JSS'ning Makroiqtisodiyot va salomatlik bo'yicha komissiyasi (2001) sog'liqni saqlash va uzoq muddatli iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik odatdagi tasavvurdagiga nisbatan ancha kuchli, deb ta'kidlaydi. Sanitariya – arzon sog'liqni saqlash siyosati, deb ham yuritiladi. Chunki bu siyosatning foyda ko'lami katta, xarajati kasalliklarni davolash uchun ketadigan xarajatlarga nisbatan ancha kam.

3. HARAKATDA BARAKA

Har bir insonning hayotida qanday yutuqlarga erishishi, qanday marralarni zabt etishi, jamiyatdagi o'rni va obro'si ko'p jihatdan uning harakatlariga, ter to'kish va intilishiga bog'liq. Agar bolakay yoki qizaloq yaxshi o'qib, nufuzli oliy ta'lim maskanida tahsil olsa va yoki o'z ustida tinimsiz ishlash yaxshi hunarmand bo'lib yetishsa, avvalo o'z oilasi farovonligi, qolaversa Vatani taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shadi. Axir xalqimiz orasida "harakatda baraka bor" degan naql bejiz paydo bo'lmagan. U minglab yillik hayotiy tajriba asosida paydo bo'lgan.

Xitoydagi jadal iqtisodiy rivojlanishni tushuntirishda yordam beradigan omillardan biri bu madaniy qadriyatlardir (Mao va Su, 201). Tarixiy jihatdan Konfutsiyning mehnatsevarlik, tejamkorlik, ta'limning qadriyatini, oilaga hurmat madaniyati

iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Bu nafaqat odamlarni mehnat qilishga undaydi, balki ta'lim va malaka oshirish orqali samaradorlikni oshiradi.

4. O'ZBEK TILI

Millatning birinchi ko'rinishi bu til. Shu bois, dunyoda o'zini hurmat qiladigan, ulug'laydigan har bir millat avvalo o'z ona tilini ulug'laydi. Boisi, o'zga bir til ona tilidan ustun bo'lgan yurtda millatning o'tmishi ham, buguni ham, kelajagi ham bo'lmaydi. Chunki o'tmish, bugun va kelajak til bilan birga yashaydi, saqlanib qoladi va rivoj topadi. Biz o'z o'ldimizga dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishdek maqsadni qo'ygani ekanmiz, avvalo ona tili va unga bo'lgan hurmatni qadriyat deb



Ota-onaga hurmat va inson kapitalining rivojlanishi orasida empirik bog'liqlik mavjud. Keksalarga ehtirom insonni jismonan va ruhan sog'lom, kuchli va ishonchli qiladi.

bilishimiz darkor, boshqacha bo'lishi mumkin ham emas. Milliy yuksalish haqida so'z ketganda uning avvalo o'zbek tili bilan bog'liq ekanligini unutmastlik kerak.

O'z ona tilini yaxshi o'qitish inklyuziv va sifatli ta'limning asosiy omili bo'lib, ta'lim natijalari va akademik yutuqlarini yaxshilaydi (YUNESKO, 2022). O'z ona tilini mukammal bilish boshqa tillarni o'zlashtirishni osonlashtiradi hamda jamiyatda ko'p tillarda gaplasha oladiganlar sonini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir qiladi. Ko'p tillilik urf bo'lgan mamlakatlarning xodimlari ko'proq millat vakillari bilan erkin muzokaralar olib borish orqali muvaffaqiyatliroq eksport qilish va yangi texnologiyalarni tezroq o'zlashtirish olish kabi bir qator imtiyozlarga ega. Masalan, Shveysariya YA'IMining 10 foizini ko'p tillilik merosi bilan bog'laydi.

5. DINIY BAG'RIKENGLIK

Bugun O'zbekiston 130 dan ortiq millat va elat, 16 ta diniy konfessiya vakillari uchun vatan. Garchi turli millat va elatlarga mansub bo'lsada, ularning barchasi O'zbekistonning bir butun xalqini tashkil qiladi. Yurtdagi tinchlik, farovonlik va ahillik millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik bilan chambarchas bog'liq. Tinch-totuvlikning bardavom bo'lishi esa ko'p jihatdan diniy bag'rikenglik tamoyili shu yurtda kamol topayotgan har bir yoshning ongu shuuridan chuqur joy olishiga bog'liq. 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash masalasi alohida maqsad sifatida bayon etilgani bejiz emas.

Diniy bag'rikenglik ijtimoiy birlashishni kuchaytiradi, kelishmovchiliklarni kamaytiradi va inson huquqlarini qo'llab-quvvatlaydi.

6. SO'Z ERKINLIGI

Ma'lumki, bugun dunyodagi har qanday demokratik jamiyatning asosiy ustunlaridan biri bu so'z erkinligidir. So'z erkinligi bo'lmagan jamiyat taraqqiyotda ortda qolishi, korrupsiya girdobiga

tushishi, ijtimoiy adolatsizlikning avj olishini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Shuning uchun ham bugun va kelajakda so'z erkinligini ta'minlash biz uchun ham eng muhim qadriyatlar sirasiga kirmog'i darkor.

So'z erkinligi bilimlarni tarqatish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash orqali raqobatni kuchaytirishga hissa qo'shadi, shuningdek, bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi (Adam Smit, 1779). Shuningdek, so'z erkinligi innovatsiyalarning rivojlanishiga olib keladi (Mill, 1859), innovatsiyalar esa o'z navbatida iqtisodiy o'sishning asosiy omilidir.

2016-yilda Pensilvaniya universiteti iqtisodchilari tomonidan olib borilgan tadqiqotda so'z erkinligi va axborotning

78 foizi jamoada ishlash "juda muhim" yoki "o'ta muhim" sifatida baholangan kasblar ulushiga to'g'ri kelgan (ONET, 2020).

«Deloitte» (2014) tadqiqoti natijalariga ko'ra, Avstraliyaning hamkorlik iqtisodiyoti ulushi 46 mlrd. dollarga teng va hamkorlik strategiyalarini takomillashtirish orqali YA'IMni yiliga qo'shimcha 9 mlrd. dollarga oshirish mumkin. 66 foiz holatda jamoalar individual shaxslarga qaraganda yaxshiroq qaror qabul qiladi va 87 foiz holatda turli vakillardan iborat jamoalar yaxshiroq qaror qabul qiladi (Cloverpop). Xodimlar hamkorlikda ishlaganda ish sur'ati o'rtacha 15 foizga oshadi, innovatsion g'oyalarning 60 foizi shakllanadi va xodimlarning 56 foizi o'z ishidan ko'proq mamnun bo'ladi (Deloitte).

9. MEHMONDO'STLIK

Mehmondo'stlik "Maslou piramidasi" bo'yicha muhimligi jihatidan insonning 3-darajadagi (fiziologik va xavfsizlikdan so'ng) ijtimoiylashuv ehtiyojini qondirish imkoniyatlarini oshiradi, ya'ni insonning do'stlar orttirishi, oila qurishi, o'zi uchun qiziqarli odamlar bilan tanishishini yengillashtiradi.

Shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni osonligi uning ishga joylashish uchun ko'proq axborot olishi, yaxshi kayfiyat uchun sog'lom bo'lishi, oilasi uchun keraklik hissi kabilar orqali uning farovonligi oshishiga, jamiyatda esa kambag'allik darajasining pasayishiga olib keladi. Insonning asab tizimi mehmondo'stlikka xos ruhiy xususiyatlardan kuchli ta'sirlanishini neyrofan ham tasdiqladi.

10. ROZI-RIZOLIK

Rozi-rizolik – bu iqtisodiy farovonlikni doimiy ravishda tarbiyalaydigan va jonlantiradigan ijtimoiy omillardan biri.

Qiyalagan insonlarga yordam berish (altruizm) va yaxshilikka yaxshilik qaytarish (positive reciprocity) o'rtasidagi bog'liqlik kuchli ekanligi va odamlar o'zaro ijobiy munosabatda bo'lgan jamiyatlarda ishonch darajasi ham yuqoriligi aniqlangan (Frank va b., 2018). Bundan tashqari, bu ko'rsatkich, madaniyatdan qat'i nazar, yuqori kognitiv qobiliyat bilan o'zaro bog'liq. Ishonch darajasi yuqori davlatlar va kognitiv qobiliyati ko'chli insonlar istiqomat qiladigan muhit iqtisodiy jihatdan farovon bo'lishi ko'p ilmiy ishlarda isbotlangan.

Xulosa qilib aytganda, bugun biz asosiy qadriyatlarimizni belgilashda minglab yillik tariximiz, hayot tarzimiz, urf-odat va an'analarimizga tayanmog'imiz darkor. Joriy yilning 11-aprelida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimini joriy etish borasidagi dolzarb vazifalar muhokama etildi. Unda qayd etilganidek, yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, bandligini ta'minlash, ularni IT, xorijiy til, zamonaviy kasblarga o'qitish, sportga jalb qilish, xorijdagi yoshlar bilan ishlash, milliy va oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash Yangi O'zbekistonda barpo etishning muhim shartidir.

Demak, qadriyatlar masalasini yana bir karra puxta o'ylab ko'radigan fursat yetdi.

Umid OBIDOXO'JAYEV,
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti direktori,
iqtisodiyot fanlari doktori

ENDI YANGI KONSTITUTSIYA JABRDIYDALARGA

Yaqin-yaqingacha ham ayrim oilalarda turmush mojari kalavadek o'ralib, yirik bir koptokka aylanganiga qadar "ichki ishlarga" biror kimsa aralashmas, vaqti kelsa, er-xotin yarashib oladi, deya e'tibor ham berilmasdi. Taassufki, bu holat janjallar yara bog'lab, kimdir majruh, kimdir qotil bo'lmaganicha davom etardi. Endi esa bunday bo'lmaydi. Yangilangan Bosh Qomusimizda oilada hal bo'lmagan muammolarga yechim topish imkoniyati yaratildi.

Endi kamida 65 foizga yangilangan Konstitutsiya insonlar umidi, qaysidir ma'noda dardlariga malham bo'ladi desak xato bo'lmaydi. Avvallari arzini kimga aytishni bilmagan ba'zi ayollar bugun qayerga murojaat qilishni biladilar: chunki muammoga qonuniy yechim topildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, respublikamizning doimiy aholisi 36 197 781 kishini tashkil etgan. Ayollar soni – 17 981 152 kishi, erkaklar soni – 18 216 629 nafarga etgan. Doimiy

aholi tarkibidagi erkaklar soni esa ayollar sonidan 235 477 kishiga ko'p. Mubolag'asiz aytish mumkinki, har qanday inson hayotida sodir bo'layotgan yaxshi-yomon voqealarning "muallifi" asli uning o'zidir. Ayol uchun esa o'z-o'zini xo'rashidan-da ortiqroq haqorat yo'q. Har bir ota-ona qiz farzandini o'ziga ishonchi mustahkam, or-nomusli, irodali va eng asosiysi, o'qimishli qilib tarbiyalashi juda muhim. Ota-onadan farzandiga qoladigan meros ham yaxshi tarbiyadir. Zotan, hayotiy sinovlarni mardonavor yengib o'tishda boshi berk ko'chalarga kirib qolmaslik uchun ham o'g'ildir, qizdir yuksak irodali va sabrli bo'lish lozim. Ana shunda farzandlar turmush zarbalarini og'riqlarsiz yengishi mumkin bo'ladi, o'zini chorasiz sezgan ayol-qizlarimiz orasida esa o'z joniga qasd qiluvchilar kamayadi.

...Bu dunyoga ayol bo'lib kelishning o'zi katta bir mas'uliyat. Va, bu mas'uliyat ayol kishi zimmasiga juda ko'p vazifalar yuklaydi: uyda saranjom-sarishtalikka javobgar ham, er fe'liga chidash ham, qarindosh-urug'ning ko'ngliga yo'l topish ham, eng muhimi, farzandlar tarbiyasiga mas'ul ham ayol.



O'zbekistonda doimiy aholi soni har kuni qariyb 2 ming, har oyda o'rtacha 57,6 ming kishiga ko'payib bormoqda. Qayd etilishicha, joriy yil boshidan buyon aholi soni 172,8 ming kishiga oshgan. Bu esa o'z-o'zidan ijtimoiy muammolar va hatto oilaviy mojariolar ham

ortib borishini anglatadi. Ammo endi ko'ngilga taskin beradigan bir holat bor, bu – yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada bularning yechimi borligidir.

Nafisa RUSTAMOVA,
jurnalist

Eshitish baxt aslida...

BEK DAKTIL ALIFBOSI



...Bir o'quvchimiz qulog'iga eshitish moslamasini taqishganidan keyin go'yo xazina topib olgandek qiyqirib sakragancha yig'lab yubordi. Chunki, uning uchun birgina ovozni eshitish haqiqiy quvonch edi...

Ko'p hollarda endigina gapira boshlagan bolalarning noto'g'ri talaffuzlarini sezmaymiz yoki bunga e'tiborsizlik qilamiz. Natijada u odat tusiga kirib, turg'un bo'lib qoladi. Keyinchalik esa bu holat qiyinchilik bilan bartaraf etiladi. Aytish kerakki, mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar va yoshlarning samarali ta'lim olib, ulg'ayishlari, o'zlari qiziqqan kasb-hunarni egallashlari uchun zarur barcha sharoitlar yaratib berilyapti. Bizning maxsus maktab internatimizda ham yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish bilan bir qatorda ularning nuqsonlarini tuzatuvchi korreksiya ishlari ham amalga oshirilmoqda. Yaqinda maktabimizda tahsil olayotgan bolajonlar uchun "Zamin" fondi tomonidan eshitish apparatlari taqdim etilgani bolajonlarimiz uchun chinakam bayramga aylandi. Ya'ni endi ular o'z nutqlarini shakllantirishlari uchun tovushlarni eshitish imkoniga ega bo'ldilar.

O'z navbatida maktabimizda ushbu zamonaviy yordamchi texnologiyalardan foydalangan holda yangi ta'lim metodikalari ham joriy etilyapti. Ma'lumki, eshitmaydigan bolalarda atrofda qolgan taqdim qilish orqali nutqning shakllanishi jarayoni yuz bermaydi. Nutq shakllanishining dastlabki bosqichida kuzatiladigan tushunarsiz ovozlarni chiqarish ularda me'yorida eshitishga ega bo'lgan tengdoshlari kabi paydo bo'ladi. Biroq, u eshituv idroki tomonidan mustahkamlanmaganligi sababli asta-sekin so'nib boradi. Bu holat bolaning ruhiy holatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Shu sababli, alohida pedagogik ta'sirsiz bunday bolalarda nutq rivojlanmaydi. Quvonarlisi, yangi Bosh Qonunimizda ham ta'lim olish huquqi va imkoniyati kengaytirilishi bo'yicha normal kiritilganini alohida e'tirof etish lozim. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, ta'lim-tarbiya nafaqat ta'lim maskanlarida, balki oilalarda ham maqsadli tashkil etilishi bolalarni ma'naviy jihatdan yetuk, jismoniy jihatdan mustahkam, aqliy jihatdan raqobatbardosh mutaxassis etib tarbiyalashning muhim shartlaridandir. Biroq

aksariyat oilalarda kar va zaif eshituvchi bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash borasida kerakli pedagogik-psixologik ishlar yo'lga qo'yilmagan. Oilalarda kar bolalarga nisbatan avaylash va rahmdillik nuqtayi nazari bilan qarash munosabati o'rnatilgan bo'ladi. Yana bir ma'lumot: mazkur holat kar va zaif eshituvchi bolalarda sog'lom bolalardagi kabi muomala, muloqot, o'z-o'ziga xizmat va boshqa faoliyatlarda ishtirok etish ko'nikmalarining yetarlicha shakllanmasligiga olib keladi. Natijada ular maxsus ta'lim muassasasiga kelgan kunidanoq, oddiy kundalik maishiy hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashga jalb etiladilar. Bu ko'nikmalar oddiy va sodda tuyulsa-da, biroq kar bolalarning ijtimoiylashuvi uchun asos bo'ladi. Xulosa o'rinda aytish kerakki, zaif eshituvchi o'quvchilarimiz uchun birgina eshitish chinakam baxt, ana shu imkoniyatni taqdim etayotganlar esa mehr va sahovat posbonlaridir.

Hilola NURBOBOYEVA,
Sevara ALIYAROVA,
Surxondaryo viloyati
Sho'rchi tumanidagi 122-sonli
maxsus maktab internati
o'qituvchilari

NING O'RNI YO'QOLMASIN. AKS HOLDA...



Xalqimizda «Ota xom uzum yesa, farzandining tishi qamashadi», degan ibora bor. Bu nima degani? Bu - farzandlarimiz, ayniqsa, o'g'il bolalar otalariga qarab bo'y cho'zadilar, deganidir. Bu - ota nobop bo'lsa, nojo'ya ishlarga qo'lib urib nopok ko'chalarda yursa, bular farzandlari taqdiri va kelajagiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi, deganidir. Bu - eshitganidan ko'ra ko'rganiga ko'proq amal qiladigan bolalar otasi qilgan ishni takrorlashga moyil bo'ladi, bu - farzandlar tarbiyasi uchun eng avvalo, ota mas'ul, deganidir. Shunday ekan, ota tom ma'noda oilaning ustuni, farzandlari tayanchi bo'lmoqchi, bolalarining sog'lom ulg'ayishi, ma'naviy kamol topishi uchun ko'proq qayg'urmog'i lozimdir. Agar oilada otaning o'rni yo'qolsa, mas'uliyati unutilsa, farzandlar tarbiyasida noqisliklar bo'y ko'rsatadi. Bola tarbiyasida sustkashlik, loqaydlik qilganlar, ularni o'z holiga tashlab qo'yganlar yoki ularga me'yorida ortiq mehr ko'rsatib tarbiyadagi muvozanatni buzganlar o'zlarining ham, farzandlarining ham umrini uvul qilishlari mumkin.

Donishmandlardan uch bora «Dunyodagi eng aziz ne'mat nima?», deb so'raganida, uch bora ham «farzand» deya javob berishgan ekan.

Darhaqiqat, farzand beg'uborlik va musaffolikning insonlarga ravo ko'rilgan betakror timsolidir.


Biz bunday ne'matni qadrlaydigan bolajon xalqimiz. Oilada farzand dunyoga kelsa, boz ustiga u o'g'il bo'lsa, oiladagilarning, ayniqsa, otaning shodligi olamga sig'may ketadi. Qalbini chek-chegarasiz quvonch, faxr, iftixor qoplaydi.

Shunday ajib tuyg'ular barobarida u farzand ta'minoti, tarbiyasi, ta'limi uchun mas'ullik yukini ham his qila boshlaydi. Farzandlarini ilmi, hunarli, axloqli qilib tarbiyalash ham oila boshlig'ining zimmasida. Ayniqsa, o'g'il farzandlar

tarbiyasida otaning o'rni beqiyos. O'g'il-qizlarining odob axloqi, ta'lim-tarbiyasiga qayg'urmagan otalarining e'tiborsizligi, beparvoligi natijasida bugun ayrim yoshlarning missionerlar tuzog'iga osongina ilinayotgani, turli oqimlar, yot g'oyalar ta'sirida «ommaviy madaniyat» qurboniga aylanayotgani achinarli hol. Bu esa nafaqat o'sha oila, balki jamiyatning ham fojiasidir. Jamiyat rivojlanishi esa yosh avlod tarbiyasiga, ta'limiga alohida e'tibor bilan yondashishni, ota-onalar mas'uliyatini oshirishni talab etadi. Ayrim ota-onalarning mas'uliyatsizligi tarbiya jarayonida farzandlarning huquq va manfaatlarini paymol bo'lishiga, ularning ruhiy va jismoniy zo'riqlashlariga sabab bo'lmoqda. Yaqinlari tomonidan zo'ravonlikka, ruhiy bosimga uchrayotgan bolalarning turli hissiy kasalliklarga duchor bo'layotganlari ham ayni haqiqat.

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasining 2020 - 2024-yillarga mo'ljallangan Saylovoldi dasturida ham oilalar mustahkamligini ta'minlash, oilaviy ajralishlarni keskin kamaytirishga qaratilgan ilmiy asoslangan ijtimoiy-huquqiy choralar belgilash, oilaviy hamjihatlik, keksalarga hurmat, farzandlarga g'amxo'rlik kabi an'ana va qadriyatlarini targ'ib etish, yoshlarda odob-axloq tamoyillarini shakllantirish, shuningdek, mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sirlarga qarshi turishda oilaning rolini kuchaytirishga oid bir qator vazifalar belgilangan. Yangi Konstitutsiyamizga ham partiyamiz tomonidan bir qator normalar tashabbus qilindi. Jumladan, Konstitutsiyaning XIV - Oila, bolalar va yoshlar bobining 78-moddasida Davlat va jamiyat bolalar hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqining boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi, degan norma belgilab qo'yildi.

Xalqimizdan Konstitutsiyaga takliflar olish jarayonida



2024-yillarga mo'ljallangan "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining Saylovoldi dasturida ham oilalar mustahkamligini ta'minlash, oilaviy ajralishlarni keskin kamaytirishga qaratilgan ilmiy asoslangan ijtimoiy-huquqiy choralar belgilash, oilaviy hamjihatlik, keksalarga hurmat, farzandlarga g'amxo'rlik kabi an'ana va qadriyatlarini targ'ib etish, yoshlarda odob-axloq tamoyillarini shakllantirish, shuningdek, mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sirlarga qarshi turishda oilaning rolini kuchaytirishga oid bir qator vazifalar belgilangan.

partiyamiz elektorati bo'lgan o'qituvchilar, shifokorlardan bolaning ta'limi, salomatligi uchun ota-onani mas'ul qilishga oid takliflar bildirildi va bu takliflar yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 77-moddasida o'z aksini topdi. Bu moddada ota-onalar va ularning o'rni bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar, deb belgilab qo'yildi.


Bugun yoshlarimiz orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarining ortib borayotgani hech kimga sir emas. Bunday illatlarga sabab bo'layotgan omillardan biri oilalarda otaning o'rni pasayib, oilaviy ajrimlar soni ortib borayotgani, ayrim otalarning esa faqat ta'minotiga aylaniib, farzand tarbiyasini butunlay onalar zimmasiga yuklab qo'yayotganidir balki?! Bu xususda jamoatchilik fikrini o'rganish maqsadida partiya «Ayollar qanoti» tomonidan so'rovnomma o'tkazildi. Respondentlarga berilgan «Otalik mas'uliyati nima?» degan savolga ularning aksariyati,

farzandga to'g'ri tarbiya berish, deya javob berishdi. Lekin: «Farzandlarimni hech kimdan kam qilmayapman, yegani oldida, yemagani ketida. Kiyimlarning sarasini, telefonlarning brendini olib beryapman. Shu-da, bizning burchimiz!», degan javoblar ham bo'ldiki, bu, oramizda otaning asosiy vazifasi farzandlarni moddiy jihatdan ta'minlab qo'yish, deb hisoblaydiganlar ham borligini ko'rsatadi. Vaholanki, Nabiy sallallohu alayhi vasallam: «Kishining farzandiga chiroyli odob berishi, har kuni miskinlarga yarimta non sadaqa qilganidan afzalroqdir», deganlar. Bu muborak hadisdan ma'lum bo'ladiki, ota-ona farzandiga bera oladigan eng yaxshi tuhfa bu go'zal odob axloq ekan...

Farzand tarbiyasi masalasida doimo muhokamalarga sabab bo'ladigan yana bir savol bor: «Bolaga tarbiyani kim berishi kerak, ota-onami yoki maktab? Bola odobli, tarbiyali bo'lsa, muvaffaqiyatlarga erishsa, bu mening tarbiyam, deydi deganlar ko'p bo'ladi. Aksincha bo'lsa-chi? Ota-ona bandlegini ro'kach qilib, maktabni ayblasa, maktabning asosiy vazifasi ta'lim berish, deya o'qituvchilar o'zlarini oqlashadi.

Shubhasiz, bolalar va o'smirlar o'rtasida uchrayotgan noxush holatlarning ildizi oilaga borib taqaladi. Huquqbuzarlik va jinoyatlarning «yosharib» borayotganiga aksariyat hollarda oiladagi nosog'lom muhit, ota-onalar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar, farzandlarning xohish va istaklarini inobatga olmaslik, oilada otaning o'rni pasayib borayotgani, ularning farzandlari oldidagi burch va mas'uliyatlarini unutilib qo'yayotganliklari sabab bo'lmoqda. Otalarning oilasiga, farzandlariga e'tiborsizligi, loqaydligi eng katta ma'naviy illatdir. Shamol silkitgan har bir yaproq ham daraxt shoxlarini titratganidek, har bir bola taqdiri bilan bog'liq har qanday muammo ham barchamizni birdek o'ylantirishi, tashvishga solishi kerak.

(Davomi 11-betda)



BEHBUDIY DARSIBU,

Biz dunyo ilmu zakosiga tamal toshi qo'yg'an mutafakkirlar vorisi ekanimiz uchun ham ziyoli va ma'rifatli insonlarni izzat ila yod etamiz, ularni millat tanlagan yo'lning yo'lchiroqlari sanab, nomlarini faxr ila tilga olamiz.

QADRIYA



DARSI

Muborak hadislarida «Beshikdan qabrgacha ilm izlangiz» deyilgan. Bu esa ilmning, kitobning bizga o'rgatadigan eng ezgu sabog'i to'g'riso'zlik, yaxshi kitoblarni o'qish, dunyoning eng dono kishilari suhbatidan bahramand bo'lish ekaniga ishoradir. Shuning uchun ham bunday asarlar mualliflarning ilmu tafakkuriga har qancha havas qilsak kam.

Toshkent – O'zbekistonning yuragi, poytaxtning yuragi esa bizningcha Adiblar xiyobonidir. Davlatimiz rahbarining mana shu xiyobonda bo'lib, adabiyot va ma'rifat haqida kuyunib gapirib, el suyg'an adib va shoirlar ijodini targ'ib qilishni qator oliygoh jamoalari uchun sharaflil vazifa qilib qo'yg'anlarida O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasining ilmu toliblari Behbudiyning boy ma'naviy merosini o'rganish vazifasini o'zlari uchun dasturilamal deb qabul qilgan va bu borada to'planaj behavo ma'lumotlarni keng targ'ib qilishga bel bog'lagandilar.

Yaqinda atoqli mutafakkir faoliyatidan hikoya qiluvchi qisqa metrajli film suratga olingani, olim maqolalari o'rganilib, tahlil qilinib, bu asarlar targ'iboti bo'yicha ilmiy-nazariy ishlanmalar yaratilayotgani, mutafakkirning hikmatlari asosida ustozlarimiz tomonidan Adiblar xiyobonida ochiq darslar o'tilayotgani va Mahmudxo'ja Behbudiy nomidagi stipendiya ta'asis etilgani – hamma-hammasida inson qadriga bo'lgan e'tibor va e'zoz aks etadi. Shu o'rinda asli samarqandlik olimning ota tomondan Ahmad Yassaviyga, ona tomondan esa Urganch xo'jalaridan Niyozxo'ja avlodlariga borib taqalishi, Beybudiyning

ajdodlari ziyoli insonlar bo'lganidan dalolatdir. Yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, olim, birinchi o'zbek dramaturgi, teatrshunos, noshir, jurnalist Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr boshlarida Turkiston jadidchilik harakatining yetakchisi sifatida ma'rifat, hurriyat, istiqlol va ozodlik haqidagi orzu umidlari bilan yashab, Turkistonning chorizm davridagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti yo'lidagi kurashiga qanot bo'ldi. Jadidchilik harakatining asoschisi Ismoil Gasprinskiyning shogirdi sifatida uning o'z vaqtida dunyoda yuz berayotgan voqealar, jarayonlar bilan uzluksiz tanishib borgani, vaqtli matbuot, ro'znomalarni doimiy kuzatgani, shuningdek, jahonda sodir bo'layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishgani Turkiston kelajagiga oid to'g'ri xulosalar chiqarishiga sabab bo'lgan. Otasidan erta yetim qolib o'z davrining taniqli qozisi – tog'asi Muhammad Siddiqdan savod chiqargan, arab tili bilimdoni bo'lgan yana bir tog'asi Mulla Odildan arab tilini o'rgangan o'smirning tirishqoqligi tufayli qozi, keyinchalik, muftiy darajasigacha ko'tarilishi, adabiyot, tarix fanlari qatori siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug'ullanishiga sabab bo'ldi. Yangi usuldagi jadid maktabini ochish, 30 yoshli yigitning «Risolai asbobi savod», «Risolai jug'rofiyai umroniy», «Risolai jug'rofiyai Rusiy», «Kitobat ul-atfol» «Amaliyoti islom», «Muxtasar tarixi islom» kabi darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishi yoki Turkiya, Misrga borib, u yerdan xatu savod olish uchun muhim kitoblar, o'quv

qo'llanmalarni olib kelib, yangi usuldagi maktab dasturlari ustida ishlashi o'sha davrlarda har kimning ham qo'lidan kelavermaydigan jasorat edi. Shuningdek, u turli to'siqlarga uchradi, «jadidchilik» rahnamosi, dahriy deb e'lon qilindi. Ammo shunga qaramay, tatar mutafakkiri Ismoil Gasprinskiyning ma'rifatchilik borasidagi ta'limotini qo'llab-quvvatlab,

« Millat va vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini 300 dan ortiq maqolalarida aks ettirgan alloma millat taraqqiyoti uchun bir necha tilni bilish shart... »

o'z o'lkasida ham shunday ishlarni amalga oshirdi va ko'p o'tmay ma'rifatparvar sifatida o'z xalqi hurmatiga sazovor bo'ldi. U bir qator jahon tillarini bilgan yuksak madaniyat sohibi bo'lishi bilan birga, umuminsoniy madaniyatning faol targ'ibotchisi ham edi. Mahmudxo'ja Makkaga borish maqsadida arab tilini ham mukammal o'rganadi. Islom tarixi va nazariyasi bilan yaqindan tanishib, xorij tajribasi asosida o'z matbuotini ochadi. Xususan, Samarqandda «Samarqand» ro'znomasi, «Oyna» jurnali chiqishida jonbozlik ko'rsatadi. Uning maqolalari 1901-yildan boshlab «Turkiston viloyatining gazetisi», «Taraqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Tujjor», «Osioy», «Hurriyat», «Turon», «Sadoi Turkiston», «Ulug' Turkiston», «Najot», «Mehnatkashlar tovushi», «Tirik so'z», «Tarjimon», «Sho'ro», «Vaqt», «Toza hayot», kabi ro'znomalar va jurnallarda chop etiladi.

Buyuk Shekspirning «Hayot bu teatr, undagi odamlar aktiyorlar» degan gapi bor. Ma'lumki, sahnada ko'rsatilgan quvonchu, kamchiliklar insonni to'g'ri yo'lga boshlashga xizmat qiladi, xatlardan saboq, yutuqlardan shukronalik fazilatini olishga undaydi. «Teatr bu ibratxonadir» hikmatiga amal qilgan alloma o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib, «Padarkush» (1913)

Yevropa ilmgohlarida o'qitish g'oyalariga ham duch kelish mumkin. Mazkur asar o'z davrida Abdulla Qodiriyning «Baxtsiz kuyov», Mirmuhsin Fikriyning «Befarzand Ochiliboy», Hamza Hakimzodaning «Yangi saodat» kabi asarlarining yaratilishiga ham ta'sir ko'rsatgan edi. «Padarkush» Amerikaning Kaliforniya dorilfununida tarjima ham qilinib, sahnalashtirilganligini ham yaxshi bilamiz. Behbudiy ma'naviyat, madaniyat, san'at va adabiyotni rivojlantirish, ayollarning teng huquqliligi, ruhoniyning faoliyatini qayta tashkil etish, maktablarda milliy tilda o'qitish, mamlakatning siyosiy tizimini isloh qilishga ta'sir ko'rsatish maqsadida 1913-yili «Samarqand» ro'znomasini o'zbek va tojik tillarida nashr etadi. «Oyna» jurnalini chiqarib, unda she'r, maqola, e'lonlar ham berib boradi. Eng asosiy ushbu jurnalning Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindistondan Turkiyagacha tarqalgani o'sha davrlarda ma'rifatning o'ziga xos hikmati va o'ziga xos darsi ham edi. Behbudiy 1913-yili «Nashriyoti Behbudiy» atalmish xususiy nashriyotida Fitratning «Bayonoti sayyohi hindi» asarini rus tiliga tarjima qildirib nashr ettirganini ham ta'kidlash joiz. Undagi maqolalarda millat va uning haq-huquqlari, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoriga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Millat va vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini 300 dan ortiq maqolalarida aks ettirgan alloma millat taraqqiyoti uchun bir necha tilni bilish shart, deb hisoblagan edi.

U shuningdek, o'z maqolalarida «Ikki emas, to'rt til lozim», o'zbek, tojik, arab, rus va hatto biror uzoq xorij (masalan, fransuz) tilini ham bilish zarur ekanini ta'kidlaydi. «Ilm musharakdur. Bilgannikidur», «Ilmsiz millat, qavm asir va zaif qolur. Ilmsiz davlatning foydasi yo'q, ilmsiz dunyodorni hayoti yo'q» kabi da'vatu hikmatlarni o'qir ekansiz, ilm inson hayotining charog'i ekani, hazrat Imom Buxoriy aytgan «Imdan o'zga najot yo'q va bo'lmag'ay» kabi purhikmat satrlar yodingizga tushadi. Bilimdon va tafakkurli kishilar elu yurtning ziynati sanaladilar. Shu bois ham ma'rifatparvar bobomiz maktabu ilmni, xorijiy tilu nashr ishlarini, sahna asarlari targ'ibotiga zo'r beradi. Hamjihatik, bag'rikenglik, yomonu diyonatning ustunligi halqning ertasi uchun mayoq bo'lishini «Bir dasta tayoqni birga bog'langiz, kimsa sindirolmas. Agarda ajratsangiz, bir-birin har kim sindirar», degan so'zlarida isbotlashga urinadi. Inson hayoti ikki eshik orasidagi besh kunlik bayram, har daqiqaning g'animat ekani, birlashgan elning barakoti bo'lmog'ini «Munday fursat va zamanning bizga qaytib kelishi ma'lum emas, qadrini bilib ishlamoq kerakdur. Vaqt o'tgandan so'ngra o'kinmoq foyda emas» misralarida baralla aytgani esa hozirgi munavvar kunlarni yaqinlashtirishga intilganining muddaosimikan? Tug'ilib o'sgan Vatanining ertasini charog'on ko'rish, ona xalqini o'zgalarga mute emas, o'z topganiga o'zi ega chiqib, umrguzaronlik qilishiga yetaklash, olimu ulamolalar yetishib chiqishiga ziyoli muhit yaratish, jahon taraqqiyotida yurtining bo'yi bastini ro'yi rost va baland ko'rish edi muddaosi Behbudiyning!

Shu uchun ham «Men aytamankim: «Haq olinur, berilmas! Munga tarixiy, shar'iy voqea ko'p dalillar bo'lub, barcha ahli tajribaga ma'lumdur» deb baralla aytgandir buyuk alloma! Ne bo'lganda ham yurtning ozodligi, yoshlar tarbiyasi, ilmu fuzaloning yoshlar bilimiga mas'ulligi, iqtisodiyotni ta'lim-tarbiyaga sarf etmak amallari ulug' ma'rifatparvar hayotining mazmunu bo'lgani rost. Bor-yo'g'i 72 kungina faoliyat ko'rsatgan, Behbudiy katta umid bog'lagan «Turkiston muxtoriyati» yakson etilgach, millatni, milliy taraqqiyotni inkor etgan sho'rolar yo'li aldov va zo'ravonlikka asoslanganligi ro'y-rost oshkor bo'lgani va olimni ne bir qiynoqlarda o'lim topgani tarixning qora kechmislaridir.

Allomaning elu yurt oldidagi katta xizmati shundaki, u millat taraqqiyoti uchun hamisha dolzarb bo'lib qoladigan, barcha davr va zamonga bir xil tegishli bo'lgan muammo va masalalarning o'qotmiriga nazar solib, uning illatiga aniq tashxis qo'ya olgan va mazkur kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ham ilmiy va hayotiy jihatdan asoslab bera olgan.

Boshqa jadid ma'rifatparvarlarimiz kabi Behbudiy ham o'z vafotidan 18 yil o'tib, 1937 yilda «vatan xoini» sifatida «qatag'on» qilinadi. Keyinchalik 1956-yilda qaytadan oqlanadi.

Przidentimizning tashabbusi bilan 2020-yilda atoqli jadid, ulug' allomaning 145 yilligi yurtimizda keng nishonlandi. 2020-yil 30-sentyabrda O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ziyolilarga qilgan murojaatida mamlakatimiz rahbari jadidchilik harakati haqida to'xtalib, «Mamlakatimizda Uchinchi

Renessansi XX asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi», degan fikrni bildirgan edilar. Bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflet botqog'idan qitqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo'lda ular aziz jonlarini ham qurbon qildilar.

O'zbekiston Prezidentining Farmoni bilan jadidchilikning yirik namoyandalari Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonovlar istiqloq, ozodlik, erkinlik uchun qilgan fidokorligi, shuning bilan bir qatorda ularning «milliy ta'lim va tarbiya tizimi»ni yaratishdagi ulkan hissalarini uchun yuksak mukofot bilan taqdirladilar.

Garchand ne azoblarda xalqqa savodu bilimdonlikni yuqtirish, sahna asarlari orqali minglab yoshlarga yo'l-yo'riq ko'rsata olish, daromad topib, ularni nashr ishlariga, kitobu darslik chop ettirishdek muqaddas ishlarga bosh-qosh bo'lgan jadid bobomiz oramizda yo'q bo'lsalar-da, ular boshlagan nurlu yo'lining bugungi bekatlarida jahon sahnalariga dadil chiqayotgan yosh avlod millatimiz obru e'tiborini dunyoga tanitmoqda. Bobomiz chekkan zahmatlarning rohatlari bugungi kundagi hayotiy, adolatli islohotlarda bo'y ko'rsatayotir.

Biz mana shu hikmatlarni O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasida har yili mustaqillik bayramlari arafasida, ustozlar kunida, xotira va qadrlash tadbirlarida, o'quv mashg'ulotlarimizda o'tayotgan «Behbudiy darslari»da yana bir bor anglaymiz, his qilamiz.

Bugun xotira va qadrlash kunlarida akademiyamizda tashkil etilgan «Behbudiy hikmatlari» adabiyotshunos Shuhrat Rizayev va filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karimov olib borgan darslarda, O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo she'rlarida ko'nglimizga o'tmishning yorqin saboqlari bo'lib kirib bormoqda.

Adiblar xiyobonidagi buyuk mutafakkir Mahmudxo'ja Behbudiy haykali qoshidagi bahsu munozaralar, taniqli olimlar Zohidjon Islomov, Saidakbar A'zamxo'jayev, Mo'minjon Xo'djayev ta'birlarida tingladik. Biz talabalar ham alloma faoliyatiga bag'ishlangan targ'ibot ishlarining oldingi saflarida turib, mamlakatimizdagi ilmu fan va yoshlar kamolotiga berilayotgan e'tiborning shukronasi sifatida alloma faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy maqolalarimizni qator xorijiy tillarda e'lon qilmoqdamiz.

Davlatimiz rahbari: «Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda desak ayni haqiqat bo'ladi» – deya ta'kidlab o'tdilar.

Darhaqiqat, Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans davri poydevorini adabiyotshunoslarimizni, buyuk mutafakkir va allomalarni qadrlashdek asos bilan qurishida ham katta hikmat bor. Biz esa atloqi ma'rifatparvar nomidagi stipendiya bilan taqdirlanayotganimiz shukronasini elu yurtga sodiq va fidoyi xizmatimiz bilan oqlash niyatidamiz.

Behbudiy darslari, qadriyatlar darsi – ilmu tafakkur kunlari bilan ilm yo'limizni yoritib bo'averadi.

Maftuna MUMINOVA,
Xalqaro islom akademiyasi
doktoranti

OTALARNING O'RNI YO'QOLMASIN. AKS HOLDA...

«Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o'g'rilar, g'yohvandlar va nashavandlar ... kechagi tarbiyasiga e'tibor berilmagan bolalardir», deb yozgan edi Abdulla Avloniy. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bunday fikrlari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganini yoshlar tomonidan nafaqat mayda bezoriliklar, huquqbuzarliklar, balki, qotilik, og'ir tan jarohati yetkazish, nomusga tegish, bosqinchilik, talonchilik, o'g'rilik, g'yohvand moddalar iste'mol qilish yoki sotish bilan bog'liq og'ir jinoyatlar sodir etilayotgani ham ko'rsatib turibdi.

Statistikaga ko'ra, respublikamizda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 2018-yilda 938 tani, 2019-yilda 739 tani, 2020-yilning birinchi yarmida 338 tani tashkil etgan. To'g'ri, raqamlar jinoyatlar sonining yilma-yil kamayib borganini ko'rsatayapti. Lekin bunday noxush holatlarning bittasi ham ko'p, albatta.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi: xo'sh, voyaga yetmaganlar tomonidan og'ir jinoyatlar sodir etilishiga qanday omillar sabab bo'lmoqda?

Tahlillar qotillik jinoyati uchun hukm qilinganlarning aksariyati nosog'lom, ota-onasiz yoki to'liqsiz (ota yoki onasiz) oilada voyaga yetganini ko'rsatmoqda. Ota yoki onaning jinoyat sodir etishi esa bolaning ham jinoyat ko'chasiga boshlovchi asosiy omillardan biridir.

Farzand tarbiyasida uzluksizlikni ta'minlaydigan yana bir maskan borki, bu maktabdir. Umumta'lim maktablarida erkak o'qituvchilarning kamayib borayotgani ham jamiyatning og'riqli muammolaridan biri.

...Poytaxtimizdagi umumta'lim maktablaridan birida ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi sifatida ish boshlaganida mazkur bilim dargohi o'qituvchilari orasida erkak pedagoglarning ko'pligidan quvongandim. Sho'xlik qilayotgan bolalarning, «falanchi aka kelyaptilar», degan gapdan sergak tortib qolishayotganiga guvoh bo'lib, «bolalar ekan-kun», deb qo'ygandim o'zimcha. Oradan ko'p o'tmay maktabga borsam, erkak o'qituvchilari o'rinni yana ayollar egallashibdi. Aytishlaricha, ular ko'proq maosh to'lanadigan ish topishgan emish...

Otalik burchi, mas'uliyatini farzandlarini hech kimdan kam qilmay, yedirib-ichirish, kiyintirishdangina iborat deb biladigan otalarimiz daromad ilinjida xorijga chiqib ketaverisha, oilada otaning o'rinni, ota mehri yetishmayotgan bolalar qalbidagi bo'shliqni qanday to'ldiramiz?! Mehrning ko'zda ekanligini, mehrsiz berilgan tarbiya guldani tikan undirishini ularga qanday tushuntiramiz?! Maktablardagi erkak o'qituvchilarning kattaroq maoshli ish izlab ketaverisha, ayol o'qituvchilarga bo'y bermayotgan o'quvchilar tarbiyasidagi noqisliklarni qanday bartaraf etamiz?!

Bugun globallashayotgan dunyoda kechayotgan qaltis vaziyat, ayrim davlatlardagi notinchliklar, talato'palonlar, boshboshdoqliklar har birimizdan ogohlakni, o'z oilamizni, farzandlarimizni turli xavf-xatarlardan himoya qilishni taqozo etadi.

Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, inson organizmidagi unga qarshi immunitet hosil qilinishi kerak. Yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, boy tariximiz, muqaddas dinimizga hurmat, milliy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun ularning ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz lozim. Toki, yoshlarimiz o'zligini teran anglaydigan, milliy, umuminsoniy qadriyatlarini qadrlaydigan komil inson bo'lib yetishishni. Buning uchun esa har birimiz oilada o'z o'rnimizni bilsak, otalik va onalik burchimiz, mas'uliyatimizni teran anglasak, farzandlarimizni milliy qadriyatlarga tayangan holda tarbiyalasak, kifoy.

Oila atalmish muqaddas qo'rg'onda voyaga yetayotgan farzandlarning barkamol ulg'ayishida, qurilajak oilalarning mustahkamligiga erishishda, bolalar va o'smirlar o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik, mayda bezorilik, jinoyatchilik kabi noxush holatlarning oldini olishda farzand tarbiyasining muayyan pedagogik-psixologik asoslarini yaratish bugungi kundagi dolzarb vazifadir.

Quyidagi chora-tadbirlar esa muammo yechim bo'lsa, ajabmas!

- Mahalla yoshlari o'rtasida milliy, umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar, milliy o'yinlar asosida sport musobaqalari, taniqli insonlar ishtirokida davra shubhatlari, uchrashuvlar tashkil qilish hamda faol ishtirokchilarni rag'batlantirish;

- Oilaviy ajrimlarning oldini olishga qaratilgan ommaviy tadbirlar, targ'ibot-tashviqotning samarali texnologiyalarini yo'lga qo'yuvchi ijtimoiy hamkorlik mexanizmini yaratish;

- Oila va umumta'lim maktablari o'rtasida uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- Oilaviy tarbiyaning barcha jihatlarini mujassamlashtirgan ilmiy-ommabop risolalar yaratish;

- Mahalla fuqarolar yig'inlarida obro'-e'tiborli, yoshi ulug'lar, nuroniy otaxonlar yetakchiligida yosh oilalar uchun farzand tarbiyasiga oid seminar-treninglar, mahorat darslari o'tilishini yo'lga qo'yish;

- Mahalla fuqarolar yig'inlari qoshida bolalar uchun kasb-hunar, til o'rgatishga oid bepul to'garaklar tashkil qilish, kutubxonalar barpo etish. Ularini turli tadbirlarga ko'proq jalb etish.

Feruza JALILOVA,
partiya Markaziy kengashi
bo'lim boshlig'i



Surxondaryolik Qora baxshi Umirov 83 yoshida ham 60 dan ortiq xalq dostonlarini, 100 dan ziyod an'anaviy hamda zamonaviy termalarni yoddan ayta olgan.

«ALDOMISH» DAN «QIZ-JIBEK» GACHA

Talabalik yillarimda dehqonobodlik kursdosh dugonamning to'yiga borib, o'shanda birinchi marta baxshilarning xalq orasidagi obro'-e'tiborini his qilgandim. Yoshi ulug' bir otaxonning terma kuylayotgan baxshiga qarab «bizning to'ylarimiz va yaxshi kunlarimiz ularsiz o'tmaydi» degani ham go'yo kechagidek esimda. O'zim esa bir dostonni soxtlab yoddan kuylagan baxshining xotirasiga qoyil qolgandim. Dostonning dardli, qayg'uli joyiga yetganda ko'z yoshlari yuzini yuvgan baxshi ijrosini ko'rib bu san'atning ushbu turiga mehrim tushgandi...

Qayd etish joizki, Prezidentimizning 14.05.2019-yildagi PQ-4320-sonli «Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilingach bu san'at turining xalqaro maydondagi mavqeyi yanada mustahkamlandi. Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida baxshichilik maktablari tashkil etilib, nomoddiy madaniy merosimiz sanalagan xalq og'zaki ijodi namunalarini, dostonlar, laparlar, qadimiy qo'lyozmalarni asrab-avaylash, uni ziyon-zahmatsiz kelajak avlodga yetkazish, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar, ko'p asrlik tariximizni chuqur o'rganish, tiklash, qadrlash va targ'ib etish borasida aniq vazifalar belgilab berildi. YUNESKOning Nomoddiy madaniy merosni asrash hukumatlararo qo'mitasi tomonidan baxshichilik san'ati Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritildi. Baxshi o'z ijrosi bilan tinglovchi qalbiga sizib kirib, unda bu san'atga mehr uyg'otar ekan, buni ham baxshi mahorati, ham uning xalq ijodiy merosini



avloddan-avlodga yetkazish yo'lidagi mashaqqatli mehnati samarasi deyish mumkin.

O'zbek xalq og'zaki ijodining nodir namunalarini bo'lmish «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Tohir va Zuhr», «Qiz-Jibek» kabi dostonlarning turli «variant»lari bugungi kunimizgacha yashab kelmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, «Alpomish» dostonining birinchi marta «Akademnashr» nashriyotida mukammal holatda nashr qilingan nusxasi surxondaryolik Umir baxshi, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li hamda Abdunazar Poyonovlardan yozib olingan. Dostonning Umir baxshi aytganlaridan yozib olingan qo'lyozmasi 382 sahifa bo'lib, she'riy qismi 6036 misradir. Mardonaqul baxshi varianti esa hajman kichik bo'lib, qo'lyozma matni 77 sahifa, she'riy qismi 1516 misradir. O'zbekiston xalq baxshisi Abdunazar Poyonovdan yozib olingan variantning umumiy hajmi qo'lyozmada 600 sahifa bo'lib, she'riy qismi 14230 misrani tashkil etadi. Shuningdek, Ergash Jumanbulbul o'g'li qozoqlarning «Qiz-Jibek» dostonini ikki marta o'qib, oradan bir oy o'tgach, yoddan aynan aytib va yozib bergan. Surxondaryolik Qora baxshi Umirov 83 yoshida ham 60 dan ortiq xalq dostonlarini, 100 dan ziyod an'anaviy hamda zamonaviy termalarni yoddan ayta olgan. Shulardan, «Avaxxon», «Alpomish», «Nurali va Semurg», «Jahongir» kabi dostonlar, 30 dan ziyod an'anaviy hamda o'zi yaratgan zamonaviy termalar folklorshunos olimlar tomonidan yozib olingan.

Dostonni baxshisiz, baxshini esa do'mbirasiz tasavvur etish qiyin. Shuning uchun ham xalqimizda do'mbira baxshining «bolasi», degan

naql bor. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, do'mbira haqidagi ilk ilmiy ma'lumotlar Al Forobiyning «Tambur» asarida uchraydi. Afsonalarga ko'ra, Chingizxon o'g'li Jo'jining o'limi haqidagi xabarni yetkazishda ham aynan baxshi etkazgan ekan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, ota-bobolarimiz do'mbirani faqat mevali daraxtning yog'ochidan yasashgan. Ustalar kech kuzda – noyabr oyi oxiri dekabrning avvalida, hamma dov-daraxtlar uyquga ketganda meva bermay qolgan daraxtni kesishgan. Do'mbira yasaladigan yog'och kamida olti oydan to'qqiz oygacha, ba'zan bir yilgacha yerga ko'mib qo'yilgan. Odatda bitta do'mbira tayyor bo'lib, baxshining qo'lga yetib borguniga qadar kamida ikki yilcha vaqt ketishi qayd etilgan. Ajablaniishi, bitta usta yil davomida o'n dona do'mbira yasasa ham hech qachon bir xil chiqmaydi. Albatta, ularning o'lchami, tovushida farq bo'ladi. Bu avvalo, do'mbira yasalgan daraxtga, qolaversa, ustaning yurak qo'ri, mehriga ham bog'liq. Do'mbira ustalarining aytishicha, vaqt hamma narsaga o'z ta'sirini o'tkazgani sargari do'mbirani ham o'zgartirgan. Avvallari do'mbiraning tori qo'yning ichagidan yasalgan bo'lib, baxshilar auditoriyasi kengayib borgani sari do'mbiraning sadosi ham baland chiqishi talab etilgan. Shuning uchun ham hozirgi plastik torlarga ehtiyoj sezilgan. Qaysidir ma'noda do'mbira zamon talablariga moslashgan bo'lsa-da, bu do'mbira sadosiga ham, tuzilishiga ham ta'sir qilmagan. E'tiborlisi, har bir baxshichilik maktabi vakilining ijro uslubi, repertuari, ovoz, ohang, nag'masida, hatto chertayotgan do'mbirasida ham o'ziga xos jihatlari bo'lgan. Aytaylik, Ergash Jumanbulbul o'g'lining uy

muzeyida baxshi chalib aytgan do'mbirasi bor. U juda ixcham va kichkina bo'lib, uzunligi taxminan 40-50 santimetr atrofida. Tabiiyki, do'mbira nega buncha kichkina, degan savol tug'ildi? Bu ustaning dangasaligi yoki yog'och mahsulotining yetmaganidan emas, balki baxshi ota-bobolari, ustozlaridan meros shakli-shamoyildagi do'mbirani ma'qul ko'rganidandir. Ya'ni, do'mbira tanlash bilan bog'liq qadriyat va an'analar ham hamon saqlanib qolgan. Xulosa o'rinda, aytmoqchimizki, baxshichilik maktabining eng yorqin namoyandalari sifatida Sherna (Shernazar) baxshi Beknazarov, Qodir baxshi, Po'ikan shoir, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul, Bola baxshi kabi zabardast ijodkorlarning nomini tilga olamiz. Ustozlarining munosib davomchilari, ushbu san'atning o'rta avlodlari sifatida Abdunazar Poyonov, Boborayim Mamatmurodov, Shoberdi Boltayev... Bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin. Quvonarlisi, bugungi kunda 8 yoshli baxshilarning ham borligi bu san'atning barhayot ekanligidan dalolatdir. Muxtasar aytganda bu yil uchinchi marotaba o'tkazilgan Xalqaro baxshichilik san'ati festivaliga Sirdaryo mezbonlik qildi. Uch kun davomida dunyoning turli nuqtalaridan kelgan baxshi, oqin, jirovlarning ijrolari xalqaro e'tirofga sazovor bo'ldi. Bular bejizga emas albatta. Demakki, bu san'at bezavol «yashash»da davom etadi.

Mahbuba KARIMOVA,
jurnalist



Ko'plab faol foydalanuvchilar konvertlarda pul olib, internetdan moliyaviy piramidalar yaratishda foydalanadi. Aksariyat hollarda noqonuniy xayriya ishlari bilan shug'ullanish holatlari ham aniqlangan.

Chorshanba
17-may, 2023-yil
№14 (1202)

UMRAGA BORISH TO'XTATILDI



Umra ziyoratlari sayyohlik agentliklari assotsiatsiyasi xabariga ko'ra, Saudiya Arabistonida joriy yilgi Haj mavsumi boshlanishi munosabati bilan Umra ziyorati vaqtinchalik to'xtatilgan. Assotsiatsiya vakilining ta'kidlashicha, joriy yilning 5-mayidan boshlab Umra vizalari berilishi bir muddatga to'xtatilgan. – Bu mavsumiy va doimiy tartib hisoblanadi. Haj mavsumi tugagach, Umra ziyorati yangi 1445-hijriy yil boshlanishi bilan yana tiklanadi. – deyiladi agentlik xabarida.



QOZOG'ISTONLIK BLOGERLAR ENDI SOLIQ TO'LAYDI

Qozog'istonda "Onlayn platformalar va onlayn reklama to'g'risida"gi yangi qonunga ko'ra, blogerlar reklama postlarini teg qilib belgilashi va har bir reklama posti uchun soliq to'lashi kerak. Qayd etilishicha, ko'plab faol foydalanuvchilar konvertlarda pul olib, internetdan moliyaviy piramidalar yaratishda foydalanadi. Aksariyat hollarda noqonuniy xayriya ishlari bilan shug'ullanish holatlari ham aniqlangan.

Shuningdek, qonunchilikka mahalliy va maqsadli reklama bilan bog'liq ko'plab yangi atamalar kiritish rejalashtirilayotganini ham ta'kidlash joiz. Qonunchilarning fikriga ko'ra, bu soliq organlariga yuboriladigan ma'lag'lar haqida ma'lumot olishga yordam beradi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti 5-may kuni Jenevada bo'lib o'tgan konferensiyada koronavirus pandemiyasi tugaganini e'lon qildi. JSST rahbarining ta'kidlashicha, Covid-19 virusi endilikda insonlar salomatligi uchun global tahdid emas. Tashkilot ma'lumotlariga ko'ra, koronavirus tufayli qariyb yetti million kishi hayotdan ko'z yumgan. Ammo tashkilot rahbarining so'zlariga ko'ra, qurbonlar soni, katta ehtimol bilan 20 millionga yaqinni tashkil etadi.

NAKBA

Edited by Ahmad H. Sa'di & Lila Abu-Lughod
Palestine, 1948, and the Claims of Memory

DUNYO NAKBANI YODGA OLDI


Jahon OAVning yozishicha, 800 mingga yaqin falastinlikni o'z vatanlarini tark etishga majbur qilgan "falokat" - Nakbaning 75 yilligi nishonlamoqda. 1948-yilda Isroil davlatining barpo etilishiga olib kelgan urush paytida tinch aholi o'z uylaridan harbiy kuchlar tomonidan majburan quvib chiqarilgan. Falastin hukumati 1948-yilgi fojida qurbon bo'lganlar xotirasini hurmat qilish va "tarix va dalillarni buzib ko'rsatishga urinayotgan barcha yolg'on va talqinlarga qarshi turishga" chaqirmoqda. Bu yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti ushbu kunni birinchi marta rasman nishonlamoqda.

ARMANISTON KXSHTDAN CHIQQOQCHI BO'LGAN...

Armaniston Xavfsizlik kengashi 2022-yilning sentyabr oyida KXSHTdan chiqish imkoniyatini muhokama qilgan, biroq keyinchalik tashkilotdagi a'zolikni saqlab qolishga qaror qilingan. Bu haqda kuni kecha bo'lib o'tgan brifingda Armaniston tashqi ishlar vaziri o'rinbosari Safaryan ma'lum qildi.

DUBAYDA SUZUVCHI OROL QURILADI

OAVlarda qayd etilishicha, yaqin kelajakda Dubayda yangi orol "quriladi". Orol dagi binolar islomiy mavzularni aks ettirgan holda futurizm uslubida barpo etilishi ma'lum qilinmoqda. Xabarda aytilishicha, Orol davoalanayotgan bemorlar uchun turar joylar, o'quv muassasalari va o'zining suvosti transport tizimi ham bo'ladi.



Internet materiallari asosida Nafisa RUSTAMOVA tayyorladi.

E'tirof

TOSHKENT XALQARO FORUMI MISR NASHRI E'TIBORIDA

Misrning yetakchi "Sada Al-Balad" axborot agentligi "Toshkentda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha II Xalqaro forum bo'lib o'tadi" sarlavhali maqola e'lon qildi. "Joriy yilgi forum O'zbekiston kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan BMT Taraqqiyot dasturi va BMT Bolalar jamg'armasining mamlakatimizdagi vakolatxonasi ko'magida tashkil etilmoqda, - deb yozadi muallif. – Bo'lajak

anjumanda 200 dan ortiq delegat, jumladan, kambag'allikka qarshi kurash bo'yicha "J-PAL" global tashabbusi, BM TTD, XMT, Jahon banki, YUNICEF, OTB, FTA, GIZ va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar ekspertlari ishtirok etishi kutilyapti. Misr OAV ma'lum qilganidek, iqtisod bo'yicha Alfred Nobel nomidagi mukofot sovrindori, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha "J-PAL" global tashabbusi hammuassisi Abxijit Banerji, Jorj Vashington universiteti farovonlik iqtisodiyoti va

kambag'allikni o'lchash bo'yicha iqtisod professori Jeyms Foster, Oksford kambag'allikka qarshi kurashish va inson kapitalini rivojlantirish tashabbusi direktori Sabina Alkayrning forumda ishtirok etishi alohida ahamiyatga ega. "Xalqaro forumning maqsadi – kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha ilg'or jahon tajribasi va usullarini o'rganish, yaqin yillarda ko'p o'lchovli kambag'allikka barham berishda muvofiqlashgan kompleks yondashuv, ijtimoiy himoya va manzilli yordamga alohida e'tibor qaratgan

holda amalga oshiriladigan qo'shma tadqiqotlar uchun ustuvor yo'nalishlarni shakllantirish, inson kapitalini takomillashtirish orqali mehnat bozorida o'qitish dasturlari sifatini oshirish, kichik korxonalar o'sishini qo'llab-quvvatlash, yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatini kengaytirishdan iborat, deb qayd etadi nashr. Maqolada, shuningdek, ishtirokchilar rivojlanayotgan mamlakatlarda to'plangan tajribani yanada ommalashtirish maqsadida kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga

oshirishda O'zbekiston erishgan yutuqlarining usul va natijalarini, jumladan, sa'y-harakatlar samaradorligini ko'rib chiqishi ta'kidlangan. "Forum doirasida hamkorlikka oid qator hujjatlarni imzolash va qo'shma kommyunike qabul qilish rejalashtirilgan. Jumladan, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hamda "J-PAL" global tashabbusi o'rtasida Hamkorlik dasturi imzolanishi kutilmoqda", deb yozadi "Sada Al-Balad".



Karvonsaroyning XIX asrdagi old qismi tasvirlangan rasmi, XX asr boshidagi tarixiy suratlar hamda 1970 – 1997-yillardagi me'moriy qazilmalar karvonsaroyning ilgari qiyofasini tasvirlash imkoniyatini berdi.

«RABOTI»

TARIXIDAN



1926

Hozirgi
yillarda

S Qadimda O'zbekiston hududidan o'tgan Buyuk ipak yo'li mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. IX-XI asrlardayoq Buyuk ipak yo'li bo'yab yangi sardobalar, rabotlar, karvonsaroylar va qo'nimgohlar barpo etilgan. G'arb va Sharq hunarmandlari hamda savdogarlari shu yo'l tufayli bir-birlarining kasb mahoratlarini, ishlab chiqargan mahsulotlaridan va madaniyatidan xabardor bo'lishgan. Bunda ayniqsa, karvonsaroy va rabotlar katta rol o'ynagan.

Ulardan biri Navoiy viloyati, Karmana tumani markazidan 18 kilometr G'arbda Buxoro yo'li yoqasida joylashgan qadimiy Raboti Malik karvonsaroyidir. Raboti Malik XI asrning nodir obidasi bo'lib, Qoraxoniylar sulolasidan bo'lgan podshoh Shamsulmulk Nosir ibn Ibrohim tomonidan 1069 – 1079-yillarda qurilgan. U karvonsaroydan tashqari istehkom, qo'rg'on va savdo-sotiq maskani vazifasini bajargan. Raboti Malik asrlar mobaynida Turon zaminining eng qadimgi va ulkan saroylaridan biri bo'lib, xalq me'morchiligi hamda hunarmandchiligining yorqin namunasi sifatida ham go'zal, ko'rkam va fayzli go'sha hisoblangan. Manbalarga ko'ra karvonsaroy XVIII asr boshlarigacha gullab yashnagan. Yevropalik o'lkashunos A.Leman 1841-yilda Raboti Malikdan o'tar ekan, bu joy haqida qimmatli taassurotlarini yozgan edi: «Bepoyon cho'l o'rtasida kutilmaganda voha namoyon bo'ladi. Bu mustahkam qal'a endillikda

xarobaga aylangan, uning qarshisida kichik qishloq va suv hovuzi (Sardoba) joylashgan. Qal'a qadimiyligi bilan shu yurt o'tmishi davriga oiddir. Men kimlardan so'ragan bo'lsam, ularning taxminiga ko'ra, bundan 700, 800-yillar burun qal'a gullab-yashnagan va uni qadimgi Movarounnahr ko'chmanchi urug'larining yo'l boshchilaridan biri bo'lgan Malikxon, go'yo tushida ko'rib, kerakli bir yo'riqni olgan ekan. Uning nomidagi mazkur xaroba, shuningdek, yaqin qishloq hanuzgacha «Malik» deb yuritiladi.

Qal'a garchi shunday atalsa-da, aslida katta to'rtburchakdan iborat. Uzunasiga 106 qadam va kengligi ham shuncha. Bularning hammasi chiroyli va nafis g'ishtlardan nihoyatda tartibli va to'g'ri terib qurilgan». Hozir cho'l'da qad ko'tarib turgan Raboti Malikdan faqatgina peshtoq qolgan, xolos. Mahalliy aholi uni «Buxoro darvozasi», deb ham ataydi. Raboti Malik nomi bilan mashhur karvonsaroyga qiziqish katta bo'lgan. Karvonsaroyning XIX asrdagi old qismi tasvirlangan rasmi, XX asr boshidagi tarixiy suratlar hamda 1970 – 1997-yillardagi me'moriy qazilmalar karvonsaroyning ilgari qiyofasini tasvirlash imkoniyatini berdi. Mutaxassislarning xulosasiga ko'ra, uning me'moriy shakli va bezaklari juda hashamatli bo'lib ular karvonsaroydan ko'ra o'proq shohlar saroyini eslatgan. O'sha davrlarda Raboti Malik «Raboti Shoh», ya'ni «Shoh Raboti», deb atalgani ham bejiz emas. Raboti Malik keng chorsili hovli, atrofini o'ragan hujralardan iborat bo'lib, unga janub tomondan peshtoqli darvoza orqali kirilgan. Tashqari

va ichkari qismi hovlilarga, saroyga esa ba'zisi ayvonli, ba'zisi ayvonsiz uylardan, hujralarga goh gumbazsimon, goh ochiq yo'laklar orqali o'tib borilgan.

Bu yerdagi kichikroq uylarda hunarmandlar, egarsoz, etikdo'zlar, tikuvchilar, shuningdek, xizmatkorlar, suv tashuvchilar, karvonlarga yo'l ko'rsatuvchilar, oshpazlar va boshqalar yashashgan. Ularning xonalari bir-birlariga tutash bo'lgan.

Karvonsaroy tashqi devorlarining uzunligi 100 metr atrofida hamda balandligi 12 metr bo'lgan. O'rtadagi peshtoqning bo'yi 18 metr, eni esa 12 metr chamasida bo'lib, darvoza peshtoqi qurilishi jihatdan Markaziy Osiyoda eng qadimiy me'moriy inshoot sanaladi. Karvonsaroyning o'ng tomonidagi katta maydon 4000 kv.metrni tashkil etib, unga yondosh 10 ta qatorda 6 tadan eshik ustunlari o'rnatilgan.

Karvonsaroy devorlarining to'rt burchagida bo'yi 18 metrli 4 ta minora bo'lgan va u «guldasta», deb atalgan. Karvonsaroyda savdogarlar turli mamlakatlardan keltirilgan mahsulotlar bilan savdo-sotiq qilishgan. Raboti Malik XX asrning birinchi choragigacha sulton xonlarning choparlari va harbiy qo'shinlari, Zarafshon

vodiyidagi Buyuk ipak yo'lidan o'tuvchi savdogarlar va sayohatchilar karvonlari uchun o'ziga xos yo'l bekati – tovarlar va mollar jo'natiladigan omborxonasi, qolaversa, savdogarlar, ularning xizmatkorlari va qo'riqchilari uchun vaqtincha yashaydigan hovli vazifasini o'tagan. Bu yerga kelganlarga suv, qurol-aslaha, shuningdek, ulovlari bo'lgan hayvonlar uchun manziliga yetarli ozuqalar g'amlab olish imkoni berilgan. Shuning bilan birga Raboti Malik, o'zlarini «cho'l sohiblari», deb bilgan jangari ko'chmanchilar hujumidan saqlanish uchun ham kuchli tayanch va xavfsiz qo'rg'on vazifasini o'tagan. Shu bilan bir qatorda, bu yer savdo bozori bo'lib, oziq-ovqatlar, dehqonchilik mahsulotlari, naslli mollar, teri va jundan tayyorlangan buyumlarni sotish, ayirboshlash va bitimlar imzolash uchun qulay qo'rg'on bo'lgan. Raboti Malik yaqinidagi Sardoba – yopiq suv havzasining qurilganligi uzoq muddat qolib ketadigan savdogarlar va yo'lovchilar uchun yanada qulay istehkom hisoblangan.

Raboti Malikni o'rganish yuzasidan 1920-yillarda tadqiqot o'tkazgan Samarqand Davlat universiteti professori I. I. Umnyakov darvoza

peshtoqidagi kufiy yozuvini topgan. Uni tarjima qilishganda «Tangri marhamati va zamona sultoni sa'yi harakati bilan bu diyor doim jannatmakon maskandir», degan ma'no kelib chiqqan.

Karvonsaroyda 1937 – 1940, 1973 – 1977 va 1996 – 2000-yillarda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, bu joy XX asrning boshlarida ham yaxshi saqlangan. 1930 – 1935-yillarga kelibgina bino vayronaga aylangan.

Raboti Malik karvonsaroyi XI asrning ana shunday nufuzli, tarixiy va me'moriy yodgorligidir. Bugungi kunda Raboti Malik nafaqat mahalliy, balki, xorijiy sayyohlarni ham qiziqitirib, milliy me'morchiligimiz va madaniyatimizni o'zida aks ettirib kelayotgan obidalaridan biri hisoblanadi. Toshkent – Ashxobod xalqaro yo'lidagi Zarafshon vohasining eng qadimiy obidasi bo'lgan bu madaniy yodgorlik Navoiy viloyatida turizm sohasini rivojlantirishda o'z o'rniga ega bo'lgan muhim madaniy meros obyektlaridan biri hamdir.

Musallam IBRAGIMOVA,
Navoiy viloyati
tarixi va madaniyati
davlat muzeyi direktori
o'rinbosari

ONA TURKISTONCHA YIG'LAGAN YO'QDIR

Kiyikning ko'zidan boshqa aybi yo'q,
Manim jayron elim, ko'zlarimga o'q.
Darding-ku ko'ksingda yonib turgan cho'g',
Ozodlik deb sen-cha yig'lagan kimdir?

Oyoq ostindagi tufroq bo'lding-a,
"Bosmachi" bo'lding-a, "quloq" bo'lding-a,
Qirg'inlarda boshi uloq bo'lding-a?
Erk deb sen-cha bag'rin tig'lagan kimdir?

O'zligingni qamab "Yoritosh" larga,
Aylanding qanoat, fil bardoshlarga,
Hasratingni aytib gulga, toshlarga,
Jigari-bag'rini dog'lagan kimdir?

Kafansiz ko'milgan. mozori g'orat,
Yig'lab-yig'lolmagun, ozori g'orat,
Umr degan savdo bozori g'orat,
Sel-u sebor bo'lib yig'lagan kimdir?

O'z uyidan nogoh chiqqanda ilon,
Beklari tirqirab to'z'isa to'rt yon,
O'jiz qo'yehivondek garangsib yomon,
Yetmish yil o'likday uxlagan kimdir?

Qandaladay so'rib kuch-madorini,
Bir yuho toptadi nomus - orini,
Um tib Allohday aziz yorini,
Uzlatda senchalik yig'lagan kimdir?

Xarsanglar mum bo'ldi Qadr kechangda,
Ilohiy zum bo'ldi Qadr kechangda,
Kim bildi, kim bildi Qadr kechangda:
Non emas, nur so'rab yig'lagan kimdir?

Ruhingdagi mayin shabbodalardan,
Ko'zingdagi ozod ifodalardan,
G'oyibu tirik bor g'ambodalardan
So'ylasam, senchalik yig'lagan kimdir?

Qodiriyning mahzun ko'zlari aytsin,
Nosiriyning pari so'zlari aytsin,
Ajodalarning ulug' qarzlari aytsin:
Ona Turkiston-cha yig'lagan yo'qdir,
Ozodlik deb oncha yig'lagan - yo'qdir!

SEN BILAN

Chekkana mashaqqatim, ko'rgan rohatim,
Ko'rgan-kechirganim sen bilan bog'liq.
Xudo bergan rizqim, topgan davlatim,
Sening bilan totliq, sen bilan yog'liq!

Sensiz cho'lda to'zib yurgan kavrakman,
Ildizsiz, mevasiz, sarosar,
Farqim yo'q bir tovoq kepakdan,
Sen bilan ko'ksimda yetilar gavhar.

Kitobin oldirgan pariday hayron -
Sensiz so'zim, ishim kirmas amalga.
Sensiz men to'pidan ayrilgan jayron,
Sensiz ko'rgan kunim zahmat, jamalg'a.

Sensiz chumolicha rag'batim yo'qdir,
Sen bilan tog'ni ham qilarman talqon.
Sendan ayirmasin o'lguncha taqdir,
Sen o'zing ko'ksimga po'latdan qalqon,
Vatan, onajon!

LOLALAR YURTI

Bunda quyosh juda kech botar,
Kechalari sut kabi oydin.
Tonglari ham barvaqt o'tar,
Ipak kabi xushhavo Layden.

Zog' uchmaydi tunlar ko'chada,
Porlab yotar g'uj-g'uj chiroqlar.
Dengizlardan salqin ichadi
Zilol chodra kiygan qishloqlar.

Devorlarga chirmashib ketgan
"Qirg'og'ayni" gullarda huzur.
O'tloqlarda xonqizi bitgan
Insholardan "dov" to'kilar sir.

Yelkasini toblab salqinga,
Chuqur nafas oladi yo'llar.
Charxpalaklar jo'r bo'lib tunga,
Kosasida ekadi gullar.

Tushin aytar majnuna tollar,
Qoraqushday qayiqalar mudrak.
Yuguradi saharhyez chollar,
Gul ayvonda momolar sergak.

Suv tegirmon sukutni buzib,
Shopiradi kanalni sutday.
Tong murini emib qo'y-qo'zi,
Yaylovlarda ag'nar bulutday.

Tong otadi kummi orqalab,
Nurga belar maysa-giyohni.
Yuraklarga yangi o't qalab,
Kun tug'ilar yorqin, maroqli!

Uyqu qochar ko'zimdan
Xayollar qilar talosh,
Qocholmayman o'zimdan,
Oyoqqa bog'langan tosh.

Uyqusirab inida
Qushlar qo'yar chirqillab,
Tomoshabin bo'lar tun
Mingta ko'z bilan qarab.

Yo'lni bolg'alab yotar
Vagonlarning "taq-tuq"i.



Ilohiy sirga botar
Chashmalar o'yat o'qib.

Depsinar shamol-shotir
Daraxtlarga qoqilar.
Yuragimda xavotir
Chaqmoq chaqib, yoqilar.

"Katta ayiq" cho'michi
Asta ufqqa og'adi.
O'lis "Somon yo'li" dan
yerga kumush yog'adi.

Qichqirar jarchi xo'roz,
Yulduzlar bir-bir so'nar.
Xayol ko'lida qiyg'os
Marvaridgullar unar...

Bog'larda yosuman gullay boshladi,
Qumrilar mastona "hu-hu" lay boshladi,
Oftob yuraklarni yog'dulay boshladi,
Yozning shamollari xush yoqar jonga.

Qulfinay bargida qizil marjonlar,
Oq tut og'izlarda navot - darmonlar,
Bug'doy boshqoq tortib sut to'lar onlar
Yozning xayollari g'unchalar jonda.

Urushqoq mayna ham xayolparastdir,
Kabutar raqslari ishqaq payvastdir,
Qirg'og'ayni gullar bir folparastdir...
Suvlar guldiraydi qo'sh tegirmonda...
Jannat O'zbekistonda...

MO'JIZA LAHZALARI

Umrin bo'g'otiga qor tushdi necha,
Laylak qorlar yog'di afsona aytib.
Hayotimga yangi yil kirgan kecha
Har gal bolaligim uchratdim qaytib.

Kumush teraklarning qir uchlarida
Tilla isirg'aday qolgan varraklar,
Bir hovuch nur o'ynab kulgichlarida
O'smirligim keldi har yil daraklab.

Allohdan mo'jiza kutgan go'dakday
Tutsam ona taqdir etaklaridan,
Qor bosgan tog'lardan sayrab kaklikday
Yillarim chiqar qish ertaklaridan.

Ko'zim-la erkalab g'uncha qizlarni,
Dilbar singillarim manglayin o'pdim.
Shamolday aylanib dala-tuzlarni,
Gullar yaprog'iga shudringlar sepdim.

Qorxat olib kelgan kemshik bolakay -
Ostonamda turar shoshqaloq elchi.
Anhor sukutida chalib oqar nay
Vaqt degan g'animat g'aroyib yo'lchi.

Yog'och darchalarning zulfinlarida
Murg'ak og'llarimning tafti tovlanar.
Ko'kka o'rigan tut ajimlarida
O'n to'rt kunlik oy o'tovlanar.

Qiziydi gap-gashtak, hangoma, gurung,
Tanchada biqirib qaynaydi qum'g'on.
Kimdir "Kuntug'mish" dan o'qiy boshlar so'ng,
Yerning ildiziga tutashadi jon.

Borliqni chulg'aydi jannatiy ifor,
Oppoq kamalakdan qamashadi ko'z.
Zamin sukutida guvlaydi bedor
Yurak - kul ichida tirilgan Qaqqus.

Bir so'nib, boz yonmoq na xushdir,
Tiriklikda bashorat tushdir.
Gulga kirgan bir chog'im daydi,
Ishq shiddati qarog'im daydi.
Yondim, ustixonim-da yondi,
Tomirlarda qonim-da yondi.
O't ketdi -ho'l-quruq aralash
Yonaverdi to'rt taraf yakkash.
Ajdah o't nafasi tindi,
Ko'ksim aro nasimlar indi.
Kul ostida qolgan cho'g' edim,
Mulki borliq aro yo'q edim.
Bir qatra suv, bir tomchi shabnam
Bahrlar najotimidi o'sha dam?
Chag'ir-chug'ur qushlarim qaytdi,
Ma'suma, hur tushlarim qaytdi.
Men qovrilgan do'xaxni kechib,
Qalding'ochim, xush kelding uchib!

U SHE'RIYAT BO'STONINING SARVI, SADOSI EDI...

O'zbek she'riyatining atoqli namoyandasi, O'zbekiston xalq shoiri Oydin Hojiyeva 81 yoshida vafot etdi.

Xalqimizning sevimli farzandi 1942-yilning 22-aprelida Qiziltepa tumanining Bo'ston qishlog'ida tug'ilgan. 1966-yili Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning filologiya fakultetini tamomlagan. 1965 - 1976-yillarda «Sharq yulduzi» jurnalida adabiy xodim, bo'lim mudiri, 1976 - 1985-yillar «Saodat» jurnalida bo'lim mudiri, 1985 - 1995-yillarda «Gulxan», 1995-yildan esa «Saodat» jurnali bosh muharriri vazifalarida sidqidildan faoliyat yuritgan. Oydin Hojiyevaning ijodida mehribon, kechirimli va sadoqatli ona tuyg'ulari, vafodor yor, didli, farosatli va nozikta'b shoira qalbi

jo'sh urgan desak xato bo'lmaydi. Oydin Hojiyeva ijodi 60-yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan. Uning ilk she'riy to'plami 1970-yilda «Shabnam» nomi bilan chop etilgan. 1972-yildan 1996-yilga qadar shoironing yigirmaga yaqin - «Men sevgan qo'shiq», «Zar kokil qiz va quyosh», «Manzillar», «Navo», «Tarovat», «Buvisingning o'z qizi», «Dostonlar», «Tamal tosh», «Saylanma», «Najot», «Olisdan kelgan ovoz», «Ko'zinning oq qarosi» kabi she'riy to'plamlari nashr qilingan. Oydin Hojiyeva tarjimon sifatida ham samarali faoliyat olib borganini aytish joiz. Xususan, shoira Shandor Petefi, A.Mtskevich, Ovanes Tumanyan, Fayz Ahmad Fayz, Edi Ognetsvet, Rimma Kazakova, Fariza

Ungarsinova, Oyjamol Omarova, Gulruxsor, Ibroym Yusupov, Maryamxon Abulqosimova va boshqa ko'plab jahon hamda qardosh xalqlar adabiyot vakillarining ijod namunalari o'zbekchaga o'g'irgan. O'zining she'rleri esa rus, ukrain, qozoq, qirg'iz, tojik, belarus, fransuz, ingliz va urdu tillarida nashr etilgan. Shoira 1975-yilda Yoshlar ittifoqi mukofoti sovrindori bo'lgan. 1992-yil O'zbekiston xalq shoiri unvoni, 1999-yilda esa «El-yurt hurmati» ordeni bilan taqdirlangan. Biz sevimli shoiramiz Oydin Hojiyevaning vafoti munosabati bilan O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'ofurovga va shoironing barcha yaqinlariga o'z hamdardligimizni bildiramiz!

? – Oilaviy mehmon uyi ochmoqchiman. Mehmon uyining egasi sifatida qanday huquqlarga ega bo'laman?

Go'zal Tojiboyeva, Xorazm viloyati

– Mehmon uyi egalari turar-joy binosini o'z ixtiyoriga ko'ra qonunchilikda belgilangan me'yorlar doirasida tasarruf etishi, turistlarni bildirish tartibida vaqtinchalik ro'yxatga qo'yish orqali ijara shartnomasi tuzmasdan joylashtirishi, shuningdek, jamoat tartibi buzilgan hollarda IIB organlari bilan o'zaro bog'lanib harakat qilishi va subyektlarga berilgan imtiyozlardan belgilangan tartibda foydalanishi mumkin.

Advice.uz

? – Niderlandiya va Gollandiya bitta davlat ekanligini bilaman. Lekin nega ba'zan Niderlandiya, ba'zan Gollandiya deb yuritiladi? Shu haqda ma'lumot bersangiz.

Zebo Sattorova, uy bekasi

– Mamlakatning rasmiy nomi – Niderlandlar Qirolligi. Gollandiya esa Niderlandiya shimoliy qismida joylashgan eng rivojlangan hudud bo'lganligi sababli mahalliy aholi tomonidan faxr bilan "gollandiyalikman" deb tilga olingan. Bu esa keyinchalik Qirollikning norasmiy nomi darajasiga ko'tarilgan.

makepedia.uz



? – Oxirgi paytda "Sun'iy intellekt" degan so'zga tez-tez duch kelyapman. U qanday vazifani bajaradi?

Dilnoza Safarova, hamshira

– Sun'iy intellekt – informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Hozirda SIning turli amallarni bajarishga mo'ljallangan dasturiy tizimlardan iborat «ChatGPT», «Saiora», «MidJourney» kabi turlari mavjud.

Sardor Muhammadiyev, IT mutaxassisi

? – Ayrim hayvonot bog'larida "Dushanba sindromi" degan kasallik borligi haqida eshitdim. Shu rostmi?

Dildora Safarova, Oltinko'l tumani

– Ha, rost. Chunki yakshanba kuni tomoshabinlar odatdagidan ko'p bo'ladi. Hayvonlarga har xil narsalar berilishi oqibatida esa ko'pincha dushanba kuni ular kasal bo'lib qolish holatlari kuzatiladi.

Toshkent hayvonot bog'i ma'muriyati

? – Bank mening ruxsatisiz hisob raqamimdan topshiriqnomaga asosida qarzdorligim bo'yicha pulni yechib olgan. Bankning bu harakati qonuniymi?

Bahrom Toshpo'latov, Samarqand shahri

– "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarga to'g'risida"gi Nizomning 58-bandiga asosan bankning bu harakati qonuniy. Mazkur nizom qonunchilikda nazarda tutilgan hisob-kitob hujjati hisoblanadi.

Salim Jumayev, advokat

? – Yaqinda do'kondan sovutkich sotib oldim. Texnik nosoz ekani o'rnatganimdan so'ng ma'lum bo'ldi. Bir necha marotaba mutaxassis chaqirtirdim. Buning uchun sotuvchidan ma'naviy zarar undirishga haqqim bormi?

Hulkar Mirzayeva, Yangiobod shahri

– Iste'molchining huquqlari buzilishi tufayli unga yetkazilgan ma'naviy zarar yetkazgan shaxs tomonidan to'lanishi lozim va uning miqdorini sud belgilaydi. Ma'naviy zarar uchun haq to'lash mulkiy ziyon va iste'molchi ko'rgan zararning o'rni qoplanishidan qat'iy nazar amalga oshiriladi.

Isroil Mahmudov, advokat


HAMKORLIK

TURIZM SOHASIDAGI HAMKORLIK KENGAYADI

O'zbekiston va Germaniya o'rtasida turizm sohasidagi hamkorlik ikki davlatning iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Poytaxtimizda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi hamda Germaniya turizm assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Destination forum" xalqaro konferensiyasi o'tkazildi. Madaniyat va turizm vaziri Ozodbek Nazarbekov va Germaniya turizm assotsiatsiyasi prezidenti Norbert Fibig ikki mamlakat o'rtasida sayyohlik aloqalarini mustahkamlash va bo'ronda o'zaro yetakchi turoperatorlar, turistik agentliklar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda ushbu anjuman muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

– O'zbekiston muntazam ravishda Germaniyada tashkil etiladigan jahondagi eng yirik "IT-B-Berlin" turistik yarmarkasida ishtirok etib, Germaniyaning yetakchi OAV vakillari va turoperatorlari uchun mamlakatimizga press-tur va sayohatlar uyushtirmoqda, – deydi madaniyat va turizm vaziri Ozodbek Nazarbekov. – Shuningdek, Germaniyada "O'zbekiston turizm va madaniyati kunlari"ni o'tkazish ham yaxshi an'anaga aylanib ulgurgan. Aynan bugungi tadbirning o'tkazilishidan maqsad ham Germaniyadan yurtimizga keluvchi turistlar sonini ko'paytirish va Germaniyaning yirik turkompaniyalari yordamida O'zbekistonning turizm imkoniyatlarini G'arbiy Yevropa bo'ylab targ'ib qilishdan iborat.

Ma'lumot o'rnida ta'kidlash lozimki, "DRV" Germaniyaning turizm sohasidagi yetakchi assotsiatsiyasi bo'lib, u Germaniya turistik bozori daromadining qariyb 90 foizini tashkil etuvchi, xususan, yetakchi turoperatorlar, turistik agentliklar, aviakompaniyalar, temiryo'l, mehmonxonalar va boshqa sayyohlik biznesi korporatsiyalarini o'zida birlashtiradi. "Destination forum" xalqaro forumi davomida germaniyalik va o'zbekistonlik turizm yo'nalishi tadbirkorlari ishtirokida "B2B" uchrashuvlar hamda Germaniyaning eng yirik sayyohlik agentliklari va turoperatorlariga yevropaliklar uchun O'zbekistonni ustuvor sayyohlik yo'nalishi sifatida tanishtirishga qaratilgan taqdimotlar o'tkazildi. Shuningdek, tadbir



davomida Germaniya turizm assotsiatsiyasi a'zolari bilan birgalikda turizm dasturlarini kengaytirish, Germaniyadan keladigan turistlarni qiziqiradigan yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish va nemis turoperatorlari bilan hamkorlikni

faollashtirish, qolaversa, turistik kompaniyalar o'rtasida shartnomalar tuzish va hamkorlik tarmoqlarini kengaytirish masalalari atroficha muhokama etildi.

Muhayyo TOSHQORAYEVA, O'ZA

–SHU ERDA
–TIKI ANISHI
–DE MOKRATIK
PARTIYASINING
LETIMOIY
–SIVOSIY
GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:

Alisher QODIROV – kengash raisi
Akmal SAHBOV,
Abdus PULATOV,
Amriddin BERDIMURODOV,
Akmal JUMABOYEV,
Bahodir MAMATXONOV,
Ibrom ABDULLAYEV,
Ibrohim G'OFIROV,
Iroda DADAJONOVA,
Mishujiddin MIRZO,
Nodir MUXTOROV,

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

**TAHRIRIYAT
MANZILI:**

Toshkent shahri,
Uchtepa tumani,
Maqsud Shayxozoda
ko'chasi, 1 A-uy.
Gazeta tahririyati
kompyuter markazida
terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri
tahririyat nuqtayi
nazaridan farq qilishi
mumkin.

Tahririyatga kelgan xatlar
doimiy e'tiborimizda bo'lib,
ular mualliflariga qaytarilmaydi.

**NAVBATCHI
MUHARRIRLAR:**
Ravshan MAHMUDOV,
Mabshaba KARIMOVA
NASHIR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YULDOSHEV
NAVBATCHI:
Feruza XODJAYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV,
Firdavs HAMIDULLAYEV

Gazeta «Sharq» nashriyoti-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida chop etildi.
Korxonaning manzili: «Buyuk
Turon» ko'chasi, 41-uy.

Elektron pochta:
mtk@anish.uz /
mtk@anish@mail.ru

ISSN 2010-7714



2008-yil 29-oktabrda O'zbekiston
Marbut va axborot agentligi
tomonidan № 0223 raqami bilan
ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni
chiqadi.

A'dadi – 8 657.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog'oz bichimi: A3. Hajmi: 4 bosma
taboq
Buyurtma: G – 516
Bosishga topshirish vaqti: 21.00.
Topshirildi: 250